جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil
1-mart
№ 10(10)

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

BUGUN — ZULFIYAXONIM TAVALLUD TOPGAN KUN

O‘ZBEKNING ZULFIYASI



Har bir inson o‘zi yashagan jamiyatning bir jonli qismi. Hatto anglash, fikrlash jihatidan oddiy odamlardan bir qadam oldinroqda yuradi, deya qaraladigan ziyolilar, jumladan, yozuvchi va shoirlar ham bu haqiqatdan yiroq emas. Ayniqsa, boshqa bir davlatga qaram bo‘lgan yurt fuqarolarining fikr maydoni to‘laligicha hukmron siyosat to‘rlari bilan o‘ralgan bo‘ladi. Shu ma’noda, ustozimiz Zulfiyaxonim ham, ma’lum ma’noda, o‘z zamonasining farzandi bo‘lganlar.

U kishining shoira sifatida shakllanish davri – yoshlik chog‘lari nihoyatda murakkab bir davrga to‘g‘ri kelgan. Balki atrofida ro‘y berayotgan taloto‘plar, ziddiyatlarni anglash, ularni tahlil qilib, to‘g‘ri xulosalar chiqarishga, dunyoni ko‘proq go‘zallik, muhabbat darichalaridan kuzatuvchi yoshlik sururi, zavqi xalaqit bergandir. Shoiraning “Xotiram siniqlari” dostonidagi mana bu satrlar ham shunday deyishimizga bir qadar asos beradi:

Menmi? Men shu qadar yosh edim hali,
Yoshlik, g‘am begona bir-birlariga.
Qutulmoqqa anduh botqoqlaridan
Osildim muhabbat shodliklariga.
Menmi? Men ishq otlig‘
jahonlar aro,
She’r tinglab, she’r o‘qib,
she’rlarda qoldim.
Behishtiy jaranglar jonimga ora,
O‘zimning baxtimda o‘zim yo‘qoldim...

Faqat keyingi davr she’rlaridagi iqrorlarida emas, o‘zaro suhbatlarimizda ham shu fikrlarga yondosh gaplar aytganlari esimda.

– Cho‘lponni ko‘rgansiz-a? – deb so‘raganman o‘sha yillar haqida suhbatlashib o‘tirganimizda.

– Ha. Men u paytlar nashriyotda endigina ish boshlagandim. Xonamizga kirib kelganlar. Ozg‘in, baland bo‘yli kishi ekanlar. Ko‘zimga shu qadar ozg‘in ko‘ringanlarki, egnidagi plashlari juda keng tuyulgan. “Sozim” deya nomlangan kitobchalari nashr qilinayotgan edi. Kitobcha muqovasiga mana bu satrlari chiqarilgan ekan:

Bir necha yil qantargach,
Yana oldim sozimni.
Endi aytib yig‘lamas
Ko‘ngildagi rozimni...

– Siz bu she’rga nima deysiz? – deya menga savol nazari bilan qaraganlar. Satrlar ravon, so‘zlar shirali bo‘lgani uchun:

– Yaxshi, – deganman.

Cho‘lpon menga ma’yus nigoh tashladi. Endi bilsam, Cho‘lpon erk istagida yozgan she’rlari uchun qamalgan, nashriyotga kelgan paytlari endi mahbuslikdan ozod bo‘lgan kunlari ekan. She’rdagi so‘zlar uning chidab bo‘lmas dardi ekan. Men buni vaqtlar o‘tishi bilan anglaganman, – degan edilar ustoz afsus bilan.

Ammo necha yoshda bo‘lmasin, qanday zamonda yashamasin, shoirada o‘zbekcha uradigan, millatimizning qadriyatlarini nihoyatda teran his qiladigan, uni qadrlaydigan zarif, g‘ururli, kuchli bir yurak bor edi va bu yurak hayotining barcha yillarida insoniylik, andisha, farosat, mehr, saxovat ko‘rinishlarida namoyon bo‘lardi. Eshitgan xotiralarimizdan bilamiz. Zulfiyaxonimning qizlari Hulkar opam dastlab Moskvada o‘qigan. Qizlari uchinchi kursga o‘tganida opa uning o‘qishini Toshkentga ko‘chirgan. Sababi so‘ralganida:

– Har til olam eshigiga bitta kalit. Ayniqsa, rus adabiyoti – katta xazina. Undan bahramandlik kishini har jihatdan yuksaltiradi. Shu bois farzandlarimning buyuk Pushkin tilida o‘qiy olishi, yozishi, chiroyli muloqot qilishi meni suyuntiradi. Lekin ular, avvalo, o‘z ona tilimizning latofati, jozibasini chuqur his etishlari kerak. Tasavvur qiling, dadasining, mening she’rlarimni Hulkar tarjimada o‘qisa... Yo‘q, men buni aslo istamayman, – deb javob bergan ekanlar..

(Davomi 4-sahifada).

XALQARO EKSPEDITSIYA

FORS DIYORIDAGI NAFIS MAJLISLAR

Joriy yilning 11-18-fevral kunlari Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi tomonidan Eron Islom Respublikasiga “Navoiy qadamjolari izidan” xalqaro ilmiy ekspeditsiyasi tashkil etildi. Taniqli adiblar, olimlar, tarjimon va jurnalistlardan iborat ekspeditsiya safar davomida ulug‘ shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning qadami teggan joylarni ziyorat qilish bilan birga, soha uchun ko‘plab yangiliklarga ega bo‘lishdi. Erondagi qator universitetlar, muzey va kutubxonalarda navoiyshunoslik anjumanlari, Hazrat Navoiy ta’biri bilan aytganda, “majolis un-nafois”lar o‘tkazildi. Safar taassurotlari bilan o‘rtoqlashish maqsadida ekspeditsiya a’zolari bilan davra suhbati tashkil etdik.

(Davomi 2-sahifada).

UYG‘OQ XOTIRA

Bugun – atoqli olim va jamoat arbobi, professor Ozod Sharafiddinov tavalludiga 95 yil to‘ldi. U kishi aslida o‘z davrining chinakam jadidlaridan biri edi. Atoqli olimning ma’naviy jasorati, mashaqqatli va sharafli hayot yo‘li barchamizga ibrat bo‘lgulik. Filologiya fanlari doktori, professor Begali Qosimovning e’tiboringizga havola qilinayotgan quyidagi maqolasi o‘z vaqtida zabardast adibning ma’naviy qiyofasini ochib bergani bilan alohida ahamiyatga molikdir.

ADOLAT MANFAATI

Har bir xatti-harakatimiz asosida manfaat yotadi desak, sodda o‘quvchi bizni xudbinlikda ayblashi mumkin. Lekin aslida ham shunday. Biz shunchaki, ermak deb qaraydigan mashg‘ulotlarimizda ham ko‘nglimizning yoxud jismimizning nimagadir bo‘lgan ehtiyojini qondiramiz. Ammo manfaat deyilganda xayolimizga, birinchi navbatda, shaxsiy manfaat keladi. Chunki manfaat so‘zini deyarli faqat shaxsga bog‘lab, yomon otliq qilib qo‘yganmiz. Aslida dunyoni ham manfaatdor boshqaradi. Chunki manfaat degani nimaningdir, kimningdir nafini, ya’ni foydasini ko‘zlab ish yuritmoqdir. Busiz hech qanday faoliyatni tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Shu jihatdan olib qaraganda, mashhur tanqidchi va adabiyotshunos, jamoat arbobi, professor Ozod Sharafiddinov faoliyatining mazmun-mohiyatini adolat manfaati va shu yo‘lda olib borilgan kurash tashkil etadi desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Sirasini aytganda, domlaning nomini bilmaydigan ziyolini mamlakatimizda topish qiyin. Hamkasblar, ilmiy-adabiy jamoatchilik bu kishini deyarli yakdillik bilan e’tirof etadi, tan oladi. Chunki u so‘z ochgan har bir mavzusini yaxshi biladi, mohiyatini teran anglaydi, hamisha zarur va asosli xulosalar chiqaradi.

Sohasiga doir keng va chuqur bilim, yondosh sohalardan xabardorlik, tabiatidagi tantilik va jo‘mardlik, ayni paytda har bir fikr-mulohazasida yarqirab turadigan adolat tuyg‘usi uning chiqishlariga alohida bir ko‘rk va joziba bag‘ishlaydi.

(Davomi 3-sahifada).

DUNYO JADIDSHUNOSLARI

Adib XOLID:

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI — BEBAHO XAZINA

Markaziy Osiyodagi jadidlik harakati keng miqyosli, sertarmoq fenomenal hodisa bo‘lgani uchun uning jahon miqyosida o‘rganilishi nafaqat mintaqadagi ijtimoiy-bashariy (gumanitar) fanlar taraqqiyotiga, balki Yevroosiyodagi ilmlar rivojiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Dunyo jadidshunosligida ilmiy asarlari va sotsiologik tadqiqotlari bilan jahon hamjamiyatining e’tiborini tortgan o‘nlab olimlar borki, ularning faoliyati o‘zbek jadidshunosligini boyitadi, uning kelgusidagi taraqqiyot tamoyillarini belgilashga yordam beradi.


Mana shunday olimlardan biri yaqinda o‘zining 60 yoshini (2024-yil 17-fevral) nishonlagan AQSHning Minnesota shtatidagi Karleton kolleji professori Adib Xoliddir. Olim o‘z tarjimai holida yozadi: “Men Pokistonning Laho‘r shahrida tug‘ilganman. Onam shifokor, otam jurnalist edi.

(Davomi 6-sahifada).

BU KITOBNI O‘QIDINGIZMI?

MA’RIFATGA JONIN TIKKANLAR

“Bu kitob – menga, senga (ehtimol, butun dunyoda yagona, boshqa tillarga o‘girib bo‘lmaydigan “knygnesys” so‘ziga ega) xalqimizga vasiyatnomadir…”



Tursunali QO‘ZIYEV,
O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi

Men bu otkritkani antikvar buyumlar sotib o‘tiradigan bir qari kampirdan olgan edim. Ehtimol, unga e’tibor bermay o‘tib ketardim, biroq eski-tuski narsalar, varaqlari unniqib ketgan jurnallar orasida bir surat ko‘zimga issiq ko‘rindi, engashib, yaqinroq tikildim: bu litvalik rassom A.Zmuidzinavichius (A.Žmuidzinavičius)ning “Regejimas” asari edi.

Odatda yoymachilar mana shu almisoqdan qolgan “boylik”larini ushlab ko‘rishingizga qo‘ymaydi, qing‘ir-qiyshiq harflar bilan “Tegmang!” (“Ne trogat!”) deb yozib ham qo‘yishadi.

(Davomi 7-sahifada).

MULOHAZA

MAKTAB VA BIZ

Keyingi yillarda maktab ta’limini takomillashtirish borasida davlat tomonidan muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yangi maktablar zamonaviy talablar darajasida qurilmoqda. Prezident maktablari, ixtisoslashgan ta’lim muassasalari tashkil etilib, alohida agentlik boshqaruvi yo‘lga qo‘yildi. O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘tgan asrdan qolgan paxta terish, g‘o‘zani o‘toq qilish singari dala ishlaridan ozod qilindi. Bir so‘z bilan aytganda, faqat o‘qitish, o‘qish-o‘rganish qoldi, xolos. Nazarimizda, endi maktab ta’limi rivojlanib ketishi lozim edi. Ammo nega o‘quvchilarning bilim darajasi xalqaro reytinglarda (masalan, PISA) past natijani ko‘rsatdi? Nega maktab faoliyati ota-onani ham, o‘quvchini ham, keng jamoatchilikni ham qoniqtirmayapti? Nega bolalar maktabga borishni istamayapti?

Yaqinda maktablar hayotida navbatdagi yangilik sodir bo‘ldi. O‘quvchilar davomatini ko‘tarish maqsadida Milliy gvardiya o‘qituvchilarga yordamga keldi.

(Davomi 5-sahifada).

FORS DIYORIDAGI NAFIS MAJLISLAR

Boshlanishi 1-sahifada.

Boqijon TO‘XLIYEV, filologiya fanlari doktori, professor:



– Safar davomida Tehrondagi Alloma Tabotaboiy universiteti, Eronning Madaniyat va islomiy aloqalar tashkiloti, Fors tili va adabiyoti akademiyasi, shuningdek, bir necha universitetlar professor-o‘qituvchilari bilan suhbat va uchrashuvlarimiz ancha samarali bo‘ldi. Suhbatlar jarayonida O‘zbekistonda so‘nggi yillarda kechayotgan islohotlar, ayniqsa, Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodiga munosabat davlat miqyosida tubdan o‘zgarganini mezbonlar yakdillik bilan e’tirof etishdi. Alisher Navoiy nomidagi xalqaro fond tomonidan amalga oshirilgan 30 jilddan iborat “Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi” turkumidagi kitoblarning taqdim etilishi eronlik mutaxassislarning ehtirom va e’tiroflariga sazovor bo‘ldi.

Uchrashuvlarda ilmiy, ta’limiy muassasalarning rektorlari, prorektorlar, fakultet dekanlari va ularning o‘rinbosarlari, kafedra mudirlari, yirik professor-o‘qituvchilarning faol ishtiroki ekspeditsiyaning nufuzi va maqomiga Eron tomonidan berilgan daraja va maqomni ko‘rsatib turdi. Ma’lum bo‘lishicha, hozirgacha Eron Islom Respublikasi hududidagi turli muassasa va tashkilotlarda Alisher Navoiyning 258 asari rasmiy kataloglardan joy olgan. Ular orasida mutlaqo nodir va mo‘tabar qo‘lyozmalar ham mavjud.

Eron xalqining Firdavsiy merosiga qiziqishi va e’tiqodining milliy ruhga egaligi, uning tom ma’nodagi ommaviyligi kishida havas uyg‘otadi. Nazarimizda, bunday an’analar Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘rganish hamda ommalashtirishda yo‘lga qo‘yilishi uchun jiddiy harakat qilishimiz zarur. Umuman, bu ijodiy safardan ekspeditsiya a’zolari qanoat hosil qilishdi, bu ularda yangi mavzu va muammolar ustida izlanishlar uchun munosib zamin hozirladi.

Karomat MULLAXO‘JAYEVA, filologiya fanlari nomzodi:



– Eron Islom Respublikasining ko‘plab shaharlari Navoiy taqdiri bilan tutash. Navoiy Mashhaddan Samarqandga safar qilish arafasida Sayyid Hasan Ardasherga yozgan maktubida o‘zida ulkan bir kuchni tuyayotganini, katta bir asar yozish istagini aytib, shunday deydi:

Bu maydonda Firdavsiy ul gurd erur
Ki, gar kelsa Rustam javobin berur.
Ani derga bo‘lsa qachon rag‘batim,
Erur oncha haq lutfidin quvvatim,
Ki, har necha nutq o‘lsa kohilsaroy,
Bitigaymen o‘ttuz yilin o‘ttuz oy.

Shoirga kuch-u ilhom bergan “Shohnoma” muallifi Firdavsiyning yurti – Mashhadning yonginasidagi Tus shahridir. Mashhaddan Navoiyning “Xamsa” yozish istagidagi bu o‘ylarini yodga olib Tus shahriga bordik. Firdavsiydan qolgan bu ulkan adabiy yodgorlikning (“Shohnoma”) eronliklar jon-u ruhiga singib ketganiga guvoh bo‘ldik. Ularning she’rga munosabati va aynan “Shohnoma” qahramonlari orqali o‘z kuchiga ishonch ruhi e’tiborni tortdi. Tus shahridagi hujjat ul-islom Muhammad ibn Muhammad al-G‘azzoliy qabri ziyoratidan ruhimiz poklanib yo‘lda davom etarkanmiz, u zotning xizmatlari, asarlari haqida so‘zlay boshladik. Bugun butun dunyoda uning asarlari turli rakurslarda amaliyotga tatbiq etilayotgani, dunyoviy, diniy-tasavvufiy ilmlarni uyg‘unlashtirgan bu olimning “Nasoyim ul-muhabbat”dagi ta’rif va tavsiflarini esladik.

Nishopurgacha bo‘lgan yo‘limiz avvalida tog‘lar poyida joylashgan Sabzavor shahrida barchamizni Navoiyning bolaligi haqidagi xayollar chulg‘adi nazarimda. Shoirning otasi hokimlik qilgan bu shaharda hazrat Navoiyning qadamjolarini o‘rganish bahonasida ko‘plab joylarni ziyorat qildik. Hakim Sabzavoriy nomidagi universitet bilan yaqindan tanishdik, shoir ijodiy merosiga oid anjumanlar o‘tkazildi. Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasida xurosonlik ko‘plab shoirlar tilga olingan. Ular orasida sabzavorlik, nishopurlik, mashhadlik, tuslik, sherozlik, isfahonlik shoirlar nomi keltirilgan. Ehtimol, keyinchalik ularning faoliyatini tiklashda “Majolis” muhim ahamiyat kasb etgan. Mashhaddagi Imom Ali Rizo majmuasi kutubxonasidagi qo‘lyozmalar, Mashhad universiteti professor-o‘qituvchilaridan birining Erondagi Alisher Navoiy qo‘lyozmalari tavsifi va tasnifiga bag‘ishlangan ma’ruzasi, nazarimda, safarimizning maqsad kalitini qo‘lga kiritganimizga chiroyli ishora bo‘ldi. O‘zaro munosabatlarni mustahkamlash va davom ettirish istagida memorandumlar – kelishuvlar tuzildi...

Eron olimlari Alisher Navoiy shaxsiga, uning ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga va, albatta, ijodiga, o‘zbek tiliga bo‘lgan e’tiborini, mehrini namoyon etdi. Bunday safarlarning bardavom bo‘lishi ilm-fanimiz uchun faqat foyda keltiradi.

Erkin A’ZAM, O‘zbekiston xalq yozuvchisi:



– Bir haftalik Eron safari haqida kiroyi bir kitob yozsa ham bo‘ladi, ammo hozircha zehnga mahkam o‘rnashib qolgan bittagina taassurot bilan cheklansak. Sabzavordagi tadbirlar o‘rinlagach, kechki payt mezbonlar bizni shahardan xiyla naridagi eski bir mahallaga boshlab borishdi. Zebsiz, xarobroq go‘shalar. Biz, odatda, bunaqa manzillarga xorijiy mehmonlarni yaqin ham yo‘latmaymiz. Mezbonlardagi ishonch va qat’iyatga ko‘ra, safar dasturida qayd etilmagan bu yurishimizda nedir bir xosiyat borligini payqash mumkin edi.

Bo‘yradekkina hovlidan o‘tib, kengishroq bir xonaga kirildi. Rassomlik ustaxonasiga o‘xshaydi: dastgoh, bo‘yoq-so‘yoq, yozuv-chizuv anjomlari, devorlarda ajabtovur tasvirlar. Muallif qirqqa yetib-yetmagan Mas’ud Muhibbifar degan yigit ekan. Aytishlaricha, u tasvir san’atining allaqaysi yo‘nalishi bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinni egallagan emish. Lekin qiyofasida jahonshumul shuhrat-u shavkatlardan nishona yo‘q, odmigina bir kishi, o‘zini anchayin xattotmi, naqqoshmi deb biladi, xolos. Bunday qaraganda, asarlari rostdan ham arabiy yozuv belgilaridangina iborat chigal mujmalotni eslatadi. Biroq ana shu aji-buji tasvirlar zamirida teran bir ma’no-mazmun jo ekanini anglab turasiz. Tasviriy san’atdagi bunday yo‘sinni mutaxassislar yangi-yangi “izm”lar bilan ataydilar, muallifimiz esa ulardan bexabar bo‘lishi ham mumkin, tug‘ma tabiiy bir ishtiyoq uni bu yo‘llarga boshlagan chiqar...

Rassomning bir turkum ishlari hazrat Navoiy asarlariga bag‘ishlangan; chunonchi, bir g‘azalning har misrasidan alohida-alohida asar dunyoga kelgan. Qaytayotganimizda, muallif barchamizga ana shu asarlaridan hadya qildi. San’at ashyolarining bozori chaqqon bugungi zamon tutumlaridan xabardor kishi shoshib qolmog‘i tayin: tushimmi, o‘ngimmi? Albatta, bu yigit Pikasso emas, ammo Pikassoning barmog‘i tegган bir parcha qog‘oz ham million-millionga narxlanib turgan zamonda!.. Dunyo hashamidan yiroq faqirona, saxovatli bir kulbada buyuklik da’vosidan yiroq haqir bir inson san’at mo‘jizasi yaratib o‘tirganidan o‘zi ham bexabardek. Hazrat Navoiy nafasi yetgan xonadon...

Qosimjon SODIQOV, filologiya fanlari doktori, professor:



– Ekspeditsiya sakkiz kun davomida muttasil izlanishda bo‘ldi. Dastlabki ish kunimiz Tabotaboiy universitetida o‘tdi: olimlar bilan uchrashdik. So‘ngra Eron Milliy kutubxonasi rahbariyati bilan, tushdan so‘ng Fors tili va adabiyoti akademiyasi olimlari bilan uchrashuv o‘tkazildi. So‘ngra Milliy kutubxona fondlari bilan tanishdik. Eron madaniy yodgorliklar uyushmasidagi suhbatdan so‘ng, kechga yaqin Sabzavor shahriga yo‘l oldik. U yerda Hakim Sabzavoriy universiteti faoliyati bilan yaqindan tanishdik. So‘ng mazkur shaharning tarixiy obidalarini ko‘zdan kechirdik.

Nishopur universitetidagi uchrashuvda eronlik taniqli olimlar bilan Alisher Navoiy hazratlarining ilmiy-ijodiy merosini o‘rganish bo‘yicha hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, o‘zaro manbalar almashish va tadqiq etish borasida kelishib olganimiz ayni muddao bo‘ldi. Ilmiy uchrashuvlar nihoyatda mazmunli va foydali kechdi. Bu muloqotlarimiz ko‘p jihatdan navoiyshunoslikni yangi materiallar bilan boyitishga xizmat qilishi shubhasiz.

Ilmiy uchrashuvlarda eron olimlari ham, o‘zbek olimlari ham o‘zlarining qizg‘in ilmiy ma’ruzalari bilan qatnashdi. Biz har qadamda eronlik olimlarning samimiy munosabatini his qilib turdik..

Soyibjon BEGMATOV, O‘zbek milliy maqom san’ati markazi bosh direktori:



– Safar davomida Eronda Alisher Navoiy va musiqa san’atiga oid talaygina qimmatli ma’lumotlar saqlanib qolganiga guvoh bo‘ldik. Xususan, Alisher Navoiyning o‘z davrida musiqa san’ati rivoji uchun amalga oshirgan amaliy va ijodiy ishlari hozirgi davrgacha eron xalqi tomonidan avaylab saqlanib, ijro amaliyotida qo‘llanib kelinayotgan ekan.

Navoiyning ko‘rsatmalariga ko‘ra yaratilgan va temuriylar davrida yozilgan musiqiy risolalar Eron kutubxonalari fondida mavjudligi qayd etildi. Hakim Sabzavoriy universitetining taniqli olimlaridan biri, temuriylar davri Xuroson madaniy munosabatlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan Ali Yahyoyi Abdurahmon Jomiyning “Risolayi musiqiy”, Zaynulobiddin Husayniyning “Qonun”, Najmiddin Kavkabiyning “Risola dar bayoni duvozdah maqom”, Abdulqodir Marog‘iyning “Maqosid ul-alhon” asarlari xususidagi ma’lumotlar bilan o‘rtoqlashdi.

Hakim Sabzavoriy universitetida o‘tkazilgan uchrashuv yakunida bevosita Navoiy bilan bog‘liq ikkita musiqiy namuna talabalar ansambli tomonidan ijro etildi. Qizig‘i shundaki, birinchi asar – “Navoiy, Navoiy, Navoiy, Navoiy...” so‘zlarini naqorat qilib ijro etiladigan nag‘ma yoshlar ijrosida talqin etildi. Ushbu asar, ularning bayoniga ko‘ra, Alisher Navoiyga bag‘ishlangan qo‘shiq (“Naqsh”) bo‘lib, hazrat davridan merosdir. Bu asarning ulug‘ shoir xotirasiga atab amaliyotda ijro etib kelinishi, ushbu yurtda, ya’ni Sabzavorda xalq orasida Alisher Navoiyga bag‘ishlangan qo‘shiq hozirgacha kuylanib, saqlanib kelinayotganidan darakdir. Ikkinchi qo‘shiq ham aynan Navoiyni eslab ijro etilishi, oxirgi yarim asrda ommalashgani xususidagi ma’lumotlar qayd etildi. Bu ikki qo‘shiq aynan Navoiyga atab ijro etib kelinadigan namunalar sifatida e’zozlab kelinar ekan. Ikkinchi nag‘ma Alisher Navoiy davrida yashagan ikki yosh mulla Muhammad va Oyisha haqida, ular birgalikda qo‘shiq aytishgan.

Qo‘shiqda ularning chin sevgisi sarobga aylangani va bundan xabar topgan Alisher Navoiy ularning baxtini topishiga sababchi bo‘lgani xususida hikoya qilinadi. Shu bois bo‘lsa kerak, ushbu nag‘ma eron xalq ijrochilik amaliyotida og‘izdan og‘izga o‘tib, zamonlar osha kuylab kelingan. Hozirgi kunda ham kuy yangrashi bilan xonandalarga tinglovchilar qo‘shilib aytish an’anaga aylanib ketganiga guvoh bo‘ldik. Yarim asr oldin bu qo‘shiqning fors tilidagi namunasi bizning yurtimizda yangrab, xalq orasida keng ommalashgan edi. Bu, albatta, Eron xalqining hazrat Alisher Navoiyga ehtiromi ekanini e’tirof etish joizdir. Zero, bu ikki nag‘ma Alisher Navoiy kuyi timsolida xalq qalbida abadiy yashab kelmoqda.

davsiy, ulug‘ munajjim, riyoziyotchi olim va shoir Umar Xayyom qabrlari bilan bir qatorda hazrat Navoiyning ma’naviy ustozi Shayx Farididdin Attorning maqbaralarini ziyorat qildik. Attor qabrining o‘ng tomonida Alisher Navoiy tomonidan o‘rnatilgan tosh diqqatimizni tortdi. Tosh mehrob shaklida bo‘lib, balandligi 2 metrdan ziyod. Unda yuksak xattotlik san’ati asosida o‘yib yozilgan matn bor. Matnda hazrat Farididdin Attorning attorlikni tashlab, tasavvuf yo‘liga kirganlari bilan bog‘liq tarix aks etgan. Bu bevosita Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat”da keltirgan ma’lumotlari bilan uyg‘undir. Maqbara xodimlaridan birining aytishicha, ushbu tosh yana ikki metr yer tagiga kirgan. Xondamirning “Makorim ul-axloq” asaridagi ma’lumotga ko‘ra, mazkur ravoqli imorat 1496-1497-yilda qurilgan. Navoiy ulug‘ mashoyixlarning qabrlarini ziyorat qilish asnosida buzilishga yaqin qolgan qabrlar qatorida Attor qabrini o‘sha davrda keng qo‘llaniladigan usulda tuzatishni buyurgan va ustozi qabri yoniga ushbu toshni o‘rnattirgan.

Mashhad shahridagi Imom Rizo me’moriy yodgorlik majmuyida ham bo‘ldik. Majmua eski hovli, Alisher Navoiy ayvoni, yangi hovli, imom Rizo maqbarasi, Gavharshodbegim masjidi, madrasa, muzey, kutubxona, karvonsaroy va boshqa inshootlardan iborat ekan. To‘rtta hovlidagi katta ayvonlar XV asr oxirida Alisher Navoiy tomonidan qayta qurilgan va hozirgi ko‘rinishga keltirilgan.





Farididdin Attor maqbarasiga Alisher Navoiy tomonidan o‘rnatilgan yodgorlik toshi.

Dilnavoz YUSUPOVA, filologiya fanlari doktori, professor:



– Eron xalqi, xususan, biz ziyorat qilgan Sabzavor, Nishopur, Tus va Mashhad shaharlari aholisi bevosita temuriylar, alalxusus, Alisher Navoiy davrida bunyod etilgan inshootlar, binoyi xayrlarni benihoya e’zozlar ekan. Navoiy buyuk inshootlar me’mori, saxovatpesha, xalqparvar amir sifatida ulug‘lanishiga guvoh bo‘ldik. Mezbonlardan birining aytishicha, Mashhad shahrining aholisi suvsizlikdan qiynalgan vaqtda Alisher Navoiyning sa’y-harakatlari bilan Tus shahrining yuqori qismida joylashgan mashhur buloqlarning biridan ariq qazilib, Mashhad shahriga olib kelingan ekan.

Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” asarida ushbu buloqning nomi Chashmayi Gil, Navoiy qurdirgan ariqning uzunligi esa qariyb 80 km. ekanligi aytiladi. Nishopur shahrida bo‘lganimizda, buyuk “Shohnoma” muallifi Abulqosim Firdavsiy qabrini ziyorat qilganimizda, Navoiy ham ushbu qabrni ziyorat qilganini, Firdavsiy qabri yoniga ushbu toshni o‘rnattirganini aytdik. Bu ikki ulug‘ shoir qabrlari yonida bir-birlarini yod etib, ularga bo‘lgan ehtirom va muhabbatlarini izhor etdik.

Navoiy qurdirgan binoyi xayrlar orasida rabotlar – karvonsaroylar alohida o‘rin egallaydi. Xondamir “Makorim ul-axloq” asarida Navoiy tomonidan qurilgan 50 dan ortiq rabotning nomini keltiradi. Ushbu rabotlar orasida Mashhad shahridan o‘ttiz yetti kilometr uzoqlikda joylashgan Sangbast raboti o‘ziga xos ahamiyat kasb etar ekan. Gumbazi va minorasi bor bu bino Sulton Mahmud G‘aznaviy zamonida Tus hokimi Arslon Jozib tomonidan hijriy-qamariy 389-421 (milodiy 999-1030)-yillar oralig‘ida qurilgan. Keyinchalik binoning raboti buzilgan va Alisher Navoiy uning yonidan yangi bir rabot qurdirgan. Davlatshoh Samarqandiy Navoiy tomonidan qurdirilgan ushbu rabotning chiroyliligi va kattaligi to‘g‘risida shunday yozgan: “Olam ko‘zi haligacha bunday imoratni ko‘rmagan edi...”

Biz bilan suhbatlashgan olimning aytishicha, aynan Alisher Navoiyning zamoniga kelib, rabotlar shunchaki turar joy yoki boshpana emas, balki ma’rifiy maskan vazifasini ham o‘tagan. Eron hududida buyuk bobomiz tomonidan bunyod etilgan ushbu yodgorliklarni ko‘rib, qalblarimizni cheksiz iftixor tuyg‘usi egalladi, zavq-shavq va ishtiyoq bilan ona Vatanimizga qaytdik.

Olimjon DAVLATOV suhbatlashdi.



ADOLAT manfaati

Boshlanishi 1-sahifada.

Uning haq so‘zi, to‘g‘rilikdagi sobitligi bilan dissertatsiyalar himoyasi, bahs-munozaralar posangisi adolat foydasiga o‘zgarib ketgan paytlarini mutaxassislar yaxshi biladi. “Deyarli” deb yakdillik bilan e’tirof etilishiga qistirma qilishimning sababi shuki, tanqidiy gap hammaga ham yoqavermaydi. Ozod Sharafiddinovning bayrog‘i esa halollik va rostgo‘ylikdir. Rostgo‘ylik, tabiiyki, tanqidni ham taqozo etadi.

U kishida o‘qigan talabalar bu nomni juda aziz tutadilar. “Men Ozod akada o‘qiganman”, degan gap juda katta ma’noni anglatadi. Va bundaylar mamlakatimizning hamma joyida bor.

Ustozga yaqin bo‘lganlar omadi kelgan kishilardir. Chunki ular domladan aql va ma’rifatgina emas, tarbiya va ibrat ham oladilar.

Har to‘kisda bir ayb deganlaridek, odatda, har bir kishining oz-ko‘p nuqsoni bo‘lguvchi edi. Masalan, iste’dodlar, ko‘pincha, injiqroq, nozikfe’lroq keladilar. Bu odam esa g‘oyat odmi, hammabop. Ko‘ngliga yoqqan kishisiga jonini beradi. Ehtimol, shuning uchun, taqdir Ozod akaga juda ko‘p narsa berdi-yu, so‘ng ortiqcha iltifot ko‘rsatmagandir. Hamisha hayot deb atalgan, sir-sanoatga to‘la dunyoning qil ko‘priklariga ro‘para keldi. Tabiat unga adabiyotni nozik his qilish va munosib baholash salohiyatini hamda uni ro‘yrost aytish jasoratini berdi. Uning ijodda o‘rtamiyonalikka, “ko‘lmak davralar”ga (A.Oripov iborasi) toqati yo‘q edi. Hayot zamonasining deyarli barcha buyuklari bilan yuzma-yuz qildi. Ko‘pchilikning mehr-u muhabbatiga musharraf etdi. Ayrimlari bilan uzoq va davomli hamkorlikda asarlar yaratdi. Lekin hamisha ijodi va faoliyati “qilichning dami”da kechdi. Chunki u o‘rtamiyona yashay olmasdi, o‘rtamiyona seva olmasdi. Ayrimlardek ko‘nglidagini yashira olmasdi. Dilidagi tilida edi.

Yoshligi shafqatsiz urush yillariga to‘g‘ri keldi. Bu yetmaganidek, hali juda yosh ekan, ota-ona ajralib ketishdi. Shuning uchun u ota mehrining nimaligini bilmay o‘sdi. Ulg‘ayib, ilmi va qalami bilan elga tanilganida halol va rostgo‘yligi uchun ko‘p dashnomlar eshitishiga to‘g‘ri keldi. Shunga qaramay, e’tiqodiga xiyonat qilmadi. Adolat egiladi, sinmaydi, deydilar. Lekin u egilganida, shoir aytganidek, necha-necha qovurg‘alar sinadi. Ozod aka boshidan o‘tganlarini “bitta o‘zi” biladi. Lekin domla hech kimga hech qachon hasrat qilgan emas. Hasrat u kishining tabiatiga yot. Bu tabiat quvnoq, hatto shaddod, lekin yon-atrofidagilarini har daqiqada shodlik va baxtga ko‘mib yuborishga tayyor turgan fazilat. Men bu qadar keng fe’llikni u kishi bilan tengdosh ijodkorlar orasida juda kam ko‘rganman. Domla chindan ham yaxshilik qil, suvga ot, suv bilmasa, baliq bilur, baliq bilmasa – Xoliq, deydiganlar toifasidan.

Men Ozod akaning qo‘lida o‘qigan baxtiyor talabalardanman, she’rlari tashna ko‘ngillarimizda muhrlanib qoldi. Chamasi, o‘sha yillari Cho‘lpon ijodini o‘rganish va xalqqa qaytarish borasida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshida qandaydir bir ilmiy hay’at tuzilgan va Ozod Sharafiddinov uning kotibi qilib belgilangan edi. Shu jihatdan, Ozod aka “qozon”-ning ichida edi. Qo‘liga kirgan ma’lumot va materiallar bilan bizni imkon doirasida tanishtirishga harakat qilardi. Ayrimlarimizning jadidshunos bo‘lib qolishimizda bu saboqlar izsiz ketgan emas. Shulardan biri sifatida men bu xotiralarni juda katta mamnuniyat va minnatdorlik bilan yodga olaman.

O‘qishni bitirayotgan yillarimiz domlaning “Zamon, qalb, poeziya” kitobi chiqdi va biz talabalarning qo‘lida dasturilamalga aylanib qoldi. Xuddi shu yili domlaning boshiga biz bilmagan allaqanday noxush tashvishlar tushdi. Juda kamdan-kam hollarda bo‘lsa-da, ular o‘zini bildirib qo‘yar edi. Lekin Ozod aka hammasini yengib o‘tdi. Alamini ilm va ijoddan oldi. Yoshlarga homiylik qilishdan charchamadi. Butun aqli va ilmiy-adabiy jamoatchilikda erishgan obro‘-martabasi bilan yosh iste’dodlarni qo‘lladi. Sotsialistik g‘oyabozlikdan ozgina chetga chiquvchi har qanday she’rga qo‘yiladigan, mohiyatan gazeta va jurnal tahririyatlari eshigini yopib qo‘yadigan “g‘oyasiz”, “tushkun”, “yig‘loqi”, “sovet kishisining ruhiyatidan uzoq” degan aybtanaffusdan keyin chop etilgan edi. Nashr haqidagi xabar yashinday tez tarqaldi. Kitobning bir qismi bosmaxonadayoq tarqab ketdi. Lekin sovetparastlik g‘alayonga keldi. Amal kursilarida o‘tirgan, Cho‘lpon, Fitratlarni, umuman jadidlikni olabo‘ji ko‘rsatish orqasidan mavqe-martaba topib kelgan akaxonlarimiz g‘azabga mindilar. “Tirik satrlar” sotuvga chiqmadi. Tiraji bosmaxonadayoq yo‘q qilindi. Fidoyi kommunistlarimiz ToshDU yotoqxonalarida xonama-xona yurib, talabalardan “buzg‘unchi” kitobni terib oldilar. Shunda ham uni saqlab qolganlar ko‘p bo‘ldi. Va keyingi salkam 20-yil davomida, oshkoralik zamoni yetib, Cho‘lpon, Fitrat nomlari emin-erkin tilga olingunga qadar muqovasiga gazetjildi qoplanib, qo‘ldan qo‘lga o‘tib o‘qib kelindi. Lekin bu kitobni nashr etganlar, birinchi navbatda, uning tashkilotchisi va mas’ul muharriri Ozod Sharafiddinov masalasi o‘sha davrning eng oliy hokimiyati hisoblangan Respublika Markazqo‘mining plenumi darajasida ko‘rildi. Gazetalar uni keng yoritdi.

Qizig‘i shundaki, bu kutilgan natijaning aksini berdi. Jamiyatda Cho‘lpon va uning atrofidagi



Kitobning bir mo‘jiza tufayli saqlanib qolgan nodir nusxasi.

1958-yil edi. 20-syezd munosabati bilan kommunistik iskanja biroz bo‘shashgan, 30-yillarning qatag‘onlari e’tirof etilib, “xalq dushmanlari”ning aslida xalq do‘stlari bo‘lgani tan olina boshlagan payt. Shu yili filologiya fakultetida konkurs juda katta bo‘ldi. Adabiyotdan og‘zaki imtihonni bugungi mashhur Naim Karimovga, tarixni Oybek domlaning o‘g‘li Omon Toshmuhamedovga topshirib, o‘qishga kirdim. Oktyabrning boshlarida Bo‘kaga paxtaga ketdik. Biz Ozod Sharafiddinovni ilk bor o‘sha yerda tanib oldik. Keng peshonali, ko‘rkam va ochiq yuzli, har bir talabaga mos gapni topib aytadigan, salobati odmilik bilan favqulodda bir tarzda qo‘shilib ketgan bu odamning qadri biz, birinchi kurs talabalari oldida g‘oyat baland edi. Goho yomg‘ir yog‘gan yoxud biror sabab bilan daladan erta qaytilgan kunlar yuqori kurslar ikkiga bo‘linib, bir tomonda Laziz Qayumov, ikkinchi tomonda Ozod Sharafiddinov boshchiligida futbol o‘ynashar, ularning yosh bolalardek beg‘ubor g‘azab va quvonchlarini tomosha qilish zavqli bo‘lardi. So‘ng uchinchi kursda Ozod akadan dars eshitdik. Ko‘pchiligimiz filologiyada o‘qisakda, uning mohiyatini anglab yetmasdik, til-adabiyot-da, deb ketaverardik. Domlaning ma’ruzalarini tinglagan sayin bu mo‘jizali olam ko‘z o‘ngimizda o‘z sir-asrorlarini namoyon eta boshladi.

Biz olgan ilk saboqlardan biri bizgacha bo‘lgan barcha adabiy haqiqatlarga shubha bilan qaramoq, tekshirib, aql tarozisidan o‘tkazmoq lozimligi bo‘ldi. Bir-birimizga beradigan so‘roqlarimizning ko‘pi “Nega?”, “Nima uchun?”, “Nima qipti?”, “Nima bo‘pti?” edi. O‘zimiz bilmagan holda “nigilist” bo‘lib qoldik. Shunday bir sharoitda domla bizni Cho‘lpon ijodi bilan tanishtirdi. “O‘tkan kunlar” nashr qilinib, Abdulla Qodiriy millionlab yosh qalblarni qayta zabt etayotgan, quloqlarni qomatga keltirgan sho‘roviy gulduroslar o‘rniga ko‘ngillarni yayratuvchi milliy ohanglar tong shabadasidek bir taralib olgan yillar edi. Shu sababli Ozod akaning Cho‘lpondan o‘qib bergan lovlardan himoya qilishga urindi. Abdulla Oripovni birinchi bo‘lib keng jurnalxonlar davrasiga olib chiqqan va uning she’rlariga oq yo‘l yozib, she’rxonlar hukmiga havola etgan kishi Ozod Sharafiddinov edi. Keyinchalik ham u haqdagi o‘z fikrlarini dadil himoya qildi.

60-yillar oxirlab, u bilan oldinmakeyin hayotimizga kirib kelgan XX syezdning “iliqlik” yillari ham nihoyasiga yetib borar edi. Ozod akaning o‘sha yillar imkoniyatidan foydalanib amalga oshirgan eng katta ishlaridan biri 20-yillarda yashab o‘tgan va adabiyotimiz tarixidan surib chiqarilgan qirqdan oshiq shoir asarlarining majmuasi – “Tirik satrlar” nashrini tashkil qilish va amalga oshirish bo‘ldi. 1968-yili G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyotida chop etilgan. Asosiy materialni Muhsin Zokirov tayyorladi. Ayrim ijodkorlarning asarlarini ToshDU va O‘zFA xodimlari tayyorlab berdilar. Ozod aka 20-yillar adabiyoti bilan yaqindan shug‘ullangan barcha mutaxassislarni jalb etishga harakat qildi. Shular qatorida men ham bor edim. Ilk marta Cho‘lponning bir dasta she’rlari 30-35 yillik shoirlarga qiziqish ortib, sovet mafkurachisi sifatida talqin qilib kelingan Hamzaga mehr susayib bordi. Jadidlik davri goh “ma’rifatchilik”, goh “ma’rifatchilik realizmi”, goh “Furqat an’analari”, goh “yangi ma’rifatparvarlik” kabi turli-tuman nomlar bilan o‘rganila boshlandi.

Hukmron mafkura va belini qirq yeridan bog‘lab uning xizmatida yurgan shotirlari 70-yillarning o‘rtalarida O‘zFAning Til va adabiyot instituti faoliyati haqida Toshkent shahar firqa qo‘mitasining qarorini chiqarishga muvaffaq bo‘ldilar. Odatdagidek, bir necha kishi jazo oldi. Bu gal jabrni institut direktori M.Qo‘shjonov va “ma’rifatchilik realizmi”ni tadqiq etgan E.Karimov tortdi. Qaror joriy udum bo‘yicha poytaxtdagi barcha tashkilot va muassasalarda ishlab chiqildi. Jadidlik borasidagi izlanishlar akademiyada boshi berk ko‘chaga kirib qoldi va u yaqin o‘n yil adabiy fikrgina emas, ijtimoiy fikrga ham to‘g‘anoq bo‘lib keldi.

Men mazkur qarorning fakultetimizda o‘tkazilgan muhokamasini yaxshi eslayman. Shu yili Ozod Sharafiddinov fakultet partiya tashkiloti kotibi edi. Ochiq partiya majlisi (unda firqasizlar ham qatnashishi shart edi) shovqin-suronsiz, hayajonlarsiz o‘tdi. Har majlisda so‘zga chiquvchi “professional”larga vaqt qoldirilmadi. Mutaxassislar XX asr boshi adabiyotining murakkabliklariga diqqatni qaratdilar, har qanday ayblovlardan o‘zlarini tiydilar. Davrni o‘rganish kerak, degan fikrga keldilar.

Hozir bunday o‘ylab qarasam, bu fikr, ya’ni jadidlikni emas, XX asr boshi adabiy harakatini o‘rganaylik, u davr esa g‘oyat murakkab, shunga ko‘ra, ehtiyot bo‘lib o‘rganaylik, degan fikr kommunistik mafkura hukmron bo‘lgan zamonda nokommunistik (to‘g‘rirog‘i, antikommunistik) g‘oyani saqlab qolish, balki himoya qilishning eng to‘g‘ri yo‘li bo‘lgan ekan.

Ozod akaning barchamiz uchun ibrat bo‘la olurlik eng muhim fazilatlaridan biri, menimcha, mard va tantiligi, hayotdagi kabi ilm-u ijodda, fikr-u e’tiqodda so‘zi va ishining, ichi va tashining birligidir. Dinda istig‘for degan tushuncha bor. Bu bandasining o‘z qilgan gunohlariga iqror bo‘lishi va Alloh tomonidan ularni kechirishini so‘rash va shu orqali poklanish ma’nolarini anglatadi. Beayb esa yolg‘iz Parvardigordir. Buni dindorlargina emas, ateistlar ham yaxshi biladilar: ishlamagan odamgina xato qilmaydi, deydilar. Haqiqatan ham shunday.

1991-yilning 1-sentyabri davlat va jamiyatimiz hayotini tamomila boshqa yo‘lga solib yubordi. Mustaqil bo‘ldik. O‘z milliy davlatimiz, o‘z dinimiz, dunyoviy asoslardagi jamiyatimiz taqdirini o‘z qo‘limizga oldik. Shunda kimlardir birdan partbiletlarini uloqtirib, eski mafkurani fosh etishga tushib ketdi. Mana shunday paytda istig‘for kerak edi.

Ozod Sharafiddinov istig‘for keltirgan va buni rasman matbuotda dalolati va tafsiloti bilan e’lon qilishga jur’at etgan, mustaqillikning ma’naviyat bilan bog‘liq muqaddas manzillariga har jihatdan poklanib qadam bosishni vijdon amri deb bilgan ziyolilarimizdan. Bu yolg‘iz jasoratgina emas. Buning uchun yuksak axloq ham lozim.

Ozod akaning “Adabiy etyudlar”, “Iste’dod jilolari”, “Birinchi mo‘jiza”, “Abdulla Qahhor” kabi o‘nlab kitoblari, “Hindiston farzandi”dan “Partiyaning oltinlari”gacha bo‘lgan o‘nlab tarjimalari adabiy-estetik tafakkurimizda, tarjimachiligimizda qanday rol o‘ynagani ilmiy maqolalarda o‘rni bilan aytilmoqda. Bugungi qizg‘in hayotimizda, birgina adabiy-madaniy emas, ijtimoiy-siyosiy jabhalarda ham muvaffaqiyat bilan ishlab turgan, xalqimizning nazar-e’tiborida kelayotgan ko‘plab iste’dodlarning Ozod akaning shogirdi ekanligi u kishining ustozlik maqomiga oydin dalil.

Domlaning hayotdagi jo‘mardligiga esa o‘nlab misollar keltirish mumkin. Bittasini aytaman: 1966-yilda zilzila munosabati bilan hozirgi “Professorlar mavzesi” hududidagi ToshDUning professor o‘qituvchilariga yer berildi. Ozod aka Chilonzorda to‘rtinchi qavatdagi “katalak” domda yashardi. Havas bilan hamkasabalari qatorida hovli quradigan bo‘ldi. Shu orada bir voqea sabab bo‘lib butun rejalar o‘zgarib ketdi. Universitetni shu yillari bitirib, shu dargohda ishga olib qolingan farg‘onalik bir yigitning xotin, bola-chaqasi bor ekan. Toshkentda turadigan joyi yo‘q, o‘zi ham yuvosh, mehr-oqibatliday ko‘rindi. Domla shart o‘ziga ajratilgan yerni bir og‘iz gap-so‘zsiz in’om qilib yubordi. Hozir shu farg‘onalik domla ishlaydi, kafedra mudiri.

Ozod akaning boy fantaziyasi-yu kutilmagan topqirliklarini, issiq-sovuqqa chidamli-yu har qanday chigal sharoitdan chiqib ketish mahoratini, katta aqli-yu kichik fe’lini yaqindan bilmoq uchun u kishi bilan safarga chiqish kerak. Afsuski, og‘ir dard – qand kasalligi so‘nggi o‘n-o‘n besh yilda domlaning sayr-u sayohatlarini keskin chekladi. Shunday og‘ir davrga qaramasdan “Jahon adabiyoti” jurnalini tashkil etdi va uni mohirona chiqardi. Keyingi ikki yilda esa shiddatli alpday vujudiga sig‘magan sheryurak, uchqurxayol olimni deyarli yurgizmay, to‘shakka bog‘lab qo‘ydi. Shunga qaramay, qachon borsangiz, dardini zarra sezdirmay, hamisha ochiq chehra bilan kutib olishini, odatdagi hazil-mutoyibani kanda qilmasligini, adabiy-madaniy hayotdan ijtimoiy-siyosiy hodisalargacha qizg‘in sharhlab, suhbat asnosida jurnal uchun, albatta, biror buyurtma berishini ko‘rib, bu odamning temir irodasiga tan berasiz. Ayni paytda bu dardning shafqatsiz olishuvlar, umrining katta qismi qilichning damida yurgani bilan bir qatorda, og‘ir yillar xotiroti bo‘lgan g‘aflat, loqaydlik va hatto xiyonat hodisalar natijasi ekanligi beixtiyor xayolingizdan o‘tadi. Shayxzodaga qo‘shilib, “Do‘stlar tirigida bir soat yo‘qlang!” – deb bong urgingiz keladi.

Begali QOSIMOV,
filologiya fanlari doktori,
professor.

1999-yil.

TILBILIM

SHOLRO‘MOL

Hozirgi yoshlar orasida sholro‘mol nimaligini bilmaydiganlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Sobiq sovet davrida sholro‘mol ham o‘zbek ayoli qiyofasini belgilaydigan ust-boshlardan sanalardi. Bir paytlar bu ro‘mol Parij asilzoda ayollari yelkalarini ham bezagan. (Men fransuzcha gapiradiganlar o‘rtasida sholro‘mol (fransuzcha: châle) haqida kichik bir so‘rov o‘tkazdim: yosh avlod uni deyarli bilmaydi, o‘rta yoshlilar: “Ha, ilgari buvilarimiz o‘ragan”, deb eslashdi).

Sholro‘mol deganda biz – tivit (ipakday mayin jun) yoki ipak, ba’zan paxtadan to‘qilgan va hoshiyalarida uzun sochiq-shokilalari osilib turadigan ro‘molni tushunamiz. Sho‘ro zamonida sholro‘mol kabi katta ro‘mollarni o‘rash urf bo‘lishining sabablaridan biri shuki, paranji tashlash harakatidan keyin sholro‘mol ayollar uchun qisman yopinchiq vazifasini ham o‘tagan.

“Shol” so‘zini biz Alisher Navoiy asarlarida ham uchratamiz. Jumladan, “Saddi Iskandariy” dostonidagi bir baytda shunday deyiladi:

Baso kujpushtu parokanda hol,
Bo‘yida chu bo‘lg‘ay ipi eski SHOL.

Ma’nosi: Bas, yelkasi bukir, parokanda hol, ustida ipi eski SHOL, ya’ni jundan to‘qilgan eski kiyim bo‘lsa-da... Ya’ni ushbu baytda “shol” so‘zi “dag‘al jun matodan tikilgan kiyim” ma’nosida kelgan.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham “shol [f-t] – yungdan to‘qilgan qalin mato, yung gazlama”, deb izohlangan va misollarda: “shol bozori”, “shol salla”, “shol dasturxon” kabi iboralar keltirilgan. Ammo aynan “sholro‘mol” lug‘atda mavjud emas.

Misollardan ko‘rinadiki, ilgari mintaqamizda “shol” deganda jundan to‘qilgan har qanday mato yoki kiyim tushunilgan, shunday buyumlar sotiladigan “shol bozorlari” ham bo‘lgan ekan, demak, o‘tmishda bu soha ancha rivojlangan.

SHOLCHA VA CHOLVOR

Tilimizda “shol” ishtirokida yasalgan boshqa so‘zlar ham bor. Deylik, “shol” so‘ziga “cha” qo‘shimchasi qo‘shib yasalgan “sholcha” – “jundan to‘qilgan kichik gilamcha” ma’nosiga ega. Yoki “shalvar” (“cholvor”) – o‘tmishda erkaklar ham, ayollar ham kiygan keng ishton (forscha: “shol”+“bar”). Bunday ishton kiyish udumi turkiy xalqlar orqali rus kazaklariga ham o‘tgan va rus tiliga bu so‘z – “шаровары” shaklida o‘zlashgan.

“Jundan to‘qilgan mato” ma’nosidagi “shol” asli forscha so‘z, ammo etimologiyasi sanskritcha o‘zakka borib taqaladi, deyiladi. Mahmud Koshg‘ariy ham “Devon-u lug‘otit turk”da “shol”ga o‘xshash “shalashu” so‘zini keltiradi va uni “Chin to‘qimalaridan bir xili”, deb izohlaydi. Koshg‘ariy keltirgan “shalashu” ham “shol” bilan bir manbaga ega bo‘lishi mumkin, ammo “Devon”da uning Chin, ya’ni Xitoyga oid to‘qima deyilishidan “shalashu”ning turkiy so‘z emasligi anglashiladi.

Sholcha yoki cholvordan farqli o‘laroq sholro‘molni, ta’bir joiz bo‘lsa, o‘tgan asrlarda yaratilgan nafis san’at asari, deyish mumkin. Shu bois u o‘z vaqtida yorqin ranglari, sifati, nafisligi bilan dunyoni zabt etgan.

SHOLRO‘MOLNING SO‘FIYONA ILDIZI

Haqiqiy sholro‘mol uzuk ko‘zidan o‘tadigan darajada nafis bo‘lishi kerak. Bunday sifatga erishish uchun esa, avvalo, xomashyo, ya’ni ipakday mayin tivit zarur. Ammo bunday jun beradigan hayvon hamma joyda ham uchramaydi. Rivoyatlarga ko‘ra, XIV asrda kubraviya tariqati vakili mutasavvif Mir Sayyid Ali Hamadoniy Amir Temur qo‘shinidan qochib, 700 muridi bilan Kashmir viloyatiga keladi. Kashmir sultonligida o‘sha davrda hukmronlik qilgan sulton Qutbiddin Hamadoniy va uning shogirdlarini izzat-ikrom bilan kutib olib, ularga yer, turar joy hadya etadi. Bir paytlar Saljuqiylar poytaxti bo‘lgan Hamadon shahrida hunarmandchilik, to‘qimachilik rivojlangan edi. Ehtimol, shu boisdandir, Hamadoniy Kashmirga kelgach, faqat Kashmir viloyatida uchraydigan tog‘ echkisining butalarga ishqalanib tashlab ketgan momiqday tiviti uning e’tiborini tortadi.

Shundan so‘ng mutasavvuf olim bu jundan bir juft jurab to‘qib sulton Qutbiddinga hadya etadi va bu yerlarda shu tivitdan sifatli shol to‘qishni yo‘lga qo‘yish mumkinligini sultonga maslahat beradi. Shunday qilib, Kashmirda shol to‘qish an’anasiga eronlik mutasavvuf olim sababchi bo‘lgan ekan. Kashmir viloyati boburiylar hukmi ostiga o‘tgach, Kashmir shollari, ayniqsa, Akbarshoh tomonidan nihoyatda qadrlanadi va bu soha har tomonlama rag‘batlantiriladi. Akbarshoh saroyida Kashmirda to‘qilgan sholro‘mol va gazlamalar keng istifoda etilgan.

SHOLRO‘MOLNING YEVROPANI ZABT ETISHI

Yevropalik asilzoda ayollar o‘rtasida sharqona sholro‘molni yelkaga tashlab yurish XVIII asr oxiri – XIX asrdan boshlab urf bo‘la boshlagan. Xususan, Fransiyada Napoleon Bonapartning Misrga yurishidan keyin, Angliyada inglizlarning Hindistonni zabt etishi ortidan sholro‘mol Ovro‘paga kirib keladi. O‘sha davrlarda sholro‘mol ovro‘palik xonimlarni shu qadar maftun etganki, ma’lumotlarga ko‘ra, Napoleonning birinchi xotini Jozefin Boarnening 400 dona sholro‘moli bo‘lgan ekan. “Shol” so‘zi aksariyat yevropa tillariga o‘zgarishsiz o‘tgan (inglizcha: shawl, fransuzcha: châle, olmoncha: schal, ispancha: chal, ruscha: shal va hokazo).

Kashmirda to‘qilgan shollar kamyob va yevropaliklar uchun nihoyatda qimmatga tushar edi. Shu bois XIX asr boshidayoq Fransiya va Yevropaning ba’zi shaharlarida sholro‘mol to‘qish korxonalari paydo bo‘lib, bu esa sholning yanada ommalashuviga olib keladi.

Balzak asarlarini o‘qiganda sholro‘molga (“châle”) ko‘p duch kelamiz. Xususan, “Gorio ota” asarida nafaqat asilzoda xonimlar, balki anchayin kambag‘al qariqiz madmuazel Mishonno, romanda tasvirlangan yupun bir pansionatda yashovchi boshqa ayollar ham yelkalariga sholro‘mol tashlab yurishadi. Roman voqealari 1819-yildan boshlanadi. Bu paytda esa, aksariyat sholro‘mollar Yevropaning o‘zida ishlab chiqarilgan va ancha hammabop buyumga aylanib qolgan edi.

“Gorio ota” asari asliyati mutolaasida kamina, shuningdek, “kashemir” (“cachemire”) so‘ziga ham bir necha bor duch keldim. O‘sha paytlarda Yevropada “kashemir” deganda Kashmirda sholro‘mol singari tivitdan to‘qilgan gazlama tushunilgan bo‘lib, bu gazlamadan ko‘ylak va boshqa kiyimlar tikilgan. Qizig‘i shundaki, Balzak, asosan, asilzoda xonimlarni kashemirdan tikilgan kiyimda tasvirlaydi.

ORENBURG RO‘MOLLARI

Rossiyaga ham, Yevropa bilan bir paytda, sharqona sholro‘mollar (ruscha: “shal”) kirib kela boshlagan va tezda Rossiyaning o‘zida Kashmir sholro‘mollariga o‘xshash ro‘mollar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Bu orada Orenburg echkilari tiviti Kashmir tog‘ echkilari tivitidan ham ingichkaroq va sifatliroq ekanligi ma’lum bo‘lib qoladi va XIX asr boshlarida mashhur orenburg sholro‘mollarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Ma’lumki, rus tilidagi “pux” so‘zi “par, tivit, momiq” kabi ma’nolarni bildiradi. Shu bois, Rossiyada tivitdan to‘qilgan ro‘mollar “puxovy” nomi bilan ham mashhur edi.

Abduvohid HAYIT

O‘ZBEKNING ZULFIYASI

Boshlanishi 1-sahifada.

Chindan ham, keyinchalik Hulkar opam o‘zbek adabiyotining katta bilimdonlaridan bo‘ldi, davralarda ota-onasining she’rlarini shunday jaranglatib o‘qirdiki, eshitganlar beixtiyor maftun bo‘lardi.

Ustoz bilan uch tomlik saylanmasini birga tayyorlaganmiz. Kitob nashrga tayyor bo‘lib, rasmlar tanlab o‘tirganimizda bir chiroyli rasmni ko‘rsatib:

– Mana bu yoshligingizdagi rasm rosa chiroyli ekan, shuni olsak-chi, – desam, opa keskin tovushda:

– Yo‘q, – deganlar.

– Nega? – deb hayron bo‘ldim.

– Yonimdagi stolga qara...

Qaradim: boshqa bir mamlakatga tegishli shoirning byusti tasviri bor edi.

– Nega endi men Navoiydan ilhom olmayapman? (Rasmda shoira qo‘lida qalam bilan, ilhom og‘ushida o‘tirgan bir qiyofada edi). Axir bizning bir shoiraga emas, butun-butun avlodlarga ilhom baxsh etishga qodir bo‘lgan Navoiymiz bor-ku...

Boshqa hech narsa demadilar. Xayollari qayerlargadir ketdi. Ammo o‘sha lahza mening esimda bir umr qoldi: chunki ustozning o‘zbaki yuragi zarblarini o‘sha lahzada teranroq tuygan edim. Shoiraning yaqin qarindoshlaridan biri vaziyat taqozosi bilan boshqa bir millat farzandiga turmushga chiqdi. Oilada farzandlar dunyoga keldi. Opaning oldiga o‘sha qarindoshlari kichkintoylarini yetaklab kelarkan. Shoira bir munosabat bilan shular haqida gapirar ekan (shoiraning “aytdi, dedi”larga mutlaqo toqati yo‘q edi, bu suhbat ham aslida ijtimoiy mavzuda ketayotgandi):

– Bilaman, bu bolalar muhabbat mevalari. Bir chiroyli ikkoviyam. Ayniqsa, qizlari oltinsoch... Bag‘rimga bosaman-u, lekin yuragimda harorat sezmayman... muzday bo‘lib turaveradi, – degandilar. Bu gaplarida milliy mahdudlik yo‘q, birovni kamsitish yo‘q. Faqat yurak o‘zingnikiga boshqacha uradi-ku... Qon gapiradi-ku, o‘zingnikini bag‘ringa bosganingda, qon junbishga keladi-ku. Qon otashlanadi-ku... O‘sha damda menga aytganlari ham opadagi o‘sha xotira ovozi edi... Men so‘zsizgina quchganman ustozni o‘shanda...

Zulfiyaxonimning ziyrakligi ham, g‘ururi ham shu tarzda o‘zbaki edi. Yana xotiralarga qaytamiz.

Erkin Malikov (uzoq yillar “Saodat”da opa bilan baqamti ishlagan) bilan Boris aka (fotograf, Mizroxin edi familiyasi) Samarqanddan bir ilg‘or sut sog‘uvchining suratini muqova uchun olib kelishadi. Surat go‘zal, hamma bosqichlardan o‘tadi. (Muqovaning chiroyiga jurnalda hamisha katta e’tibor berilgan, hozir ham shunday). Faqat opadan qaytgan.

– Ayolning qulog‘iga e’tibor berdilaringmi? Jimitday zirak taqqan. Bu zirakni ayollar quloqchasi yangi teshilgan qizaloqlar uchun ikki-uch kun taqib beradi. Shunda zirakcha teshikchaga moslashadi, taqilganda yara qilmaydi. Sizlar ayolni shunday paytda suratga olibsizlar. Bu – tabiiy ko‘rinish emas, – degan ekanlar. Muxbirlar yana shuncha yo‘l bosib (u paytlar hozirgiday texnika imkoniyatlari yo‘q, albatta), viloyatga borib rasmni ayolning o‘z ziragida suratga olib kelishadi. Sezganingizday, dunyo kezib yurgan, nufuzli davralar malikasi sanalgan Zulfiyaxonim qalbiga millatimizning u qadar ko‘zga tashlanavermaydigan jihatlari ham naqshlangan ekan, buni “o‘zbaki” so‘zidan boshqacha ifodalagim kelmayapti. O‘zbekcha g‘urur...

Zulfiyaxonim mamlakat miqyosidagi anjumanlarda tez-tez qatnashgan. Bunga u kishining shoiraliklaridan tashqari, jamoatchilik asosidagi burchlari yetaklagan. Shunday safarlarning biri Moskvada bo‘lgan. O‘zbekistondan quti-quti mevalarni sovg‘a sifatida olishga o‘rganib qolgan xonimlardan biri shoiraga:

– Hozir O‘zbekistonda pishiqchilik fasli. Ayniqsa, uzumlaring tilni yoradigan bo‘lib yetilgan bo‘lsa kerak. Ikki kilogina olib kelmabsiz-da, – deydi.

Shoira esa xonimga qat’iy ovozda:

– Men qayerga borsam faqat sumkacham bilan boraman. O‘zbekistonliklar meni yuk ko‘tarishga qo‘yishmaydi, – deydi. Keyinchalik o‘sha xonim ishlaydigan tashkilotga biror marta bormaydilar, doim o‘rinbosarlarini yuboradilar.

Men, baxtimga, ustoz Zulfiyaxonim bilan juda ko‘p suhbatdosh bo‘lganman. U kishi imkoni bo‘lsa ham, ortiqcha zeb-u ziynat taqib, yarqirab yurmasdilar. Hudabehuda to‘rga o‘tib, bilimi, mavqeyi, shon-shuhratini namoyish qilishga urinmasdilar. Ovozlari, so‘zlari, amallarini sog‘inib eslarkanman “Baxtim shul, O‘zbekning Zulfiyasiman”, degan iqrorlarining naqadar samimiy, rostligiga har gal ishonch hosil qilaveraman. Ustoz har gal bizga bugun ham ma’naviy ehtiyoj bo‘lgan ibrat taxtida yuksalaveradilar.

Qutlibeka RAHIMBOYEVA,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi



ZULFIYA,
O‘zbekiston xalq shoiri

MUDOM DILGA SODIQ KO‘ZLARIM...

* * *

Deydilarki, seni ko‘rganda
Ko‘zlarimda yonar jonli o‘t,
O‘sha o‘tning yolqinlarida
Sendan o‘zga bor narsa unut.

Mudom dilga sodiq ko‘zlarim
Haqiqatni ko‘mishi qiyin.
Ko‘zlarimda, qonimda kezgan
O‘sha sevinch, o‘sha olov sen.

Mayli, o‘zing mendan uzoqda,
Lekin dilning o‘ti bo‘lib qol.
Mening kuyim emas tuzoqda,
She’r kerakmi, jon kerakmi, ol!

SOG‘INIB
Shu kunlarda bahorga zorman,
Navjuvonlik o‘ti tanda yo‘q.
Kuz singari za’far ruxsorman,
Mevalar ham shoxlardan uzuq.

Shu kunlarda bahorga zorman,
Tanxastalik ezadi ruhim.
Tanho emas, qatorda borman,
Yana neni izlaydi suqim?

Shu kunlarda bahorga zorman,
Shaffof, yorqin kuy tilar ko‘ngul.
Yaxshiyamki, qalamga yorman,
So‘zlab turar bor dilimni ul.

Shu kunlarda bahorga zorman,
O‘z bahorim kabi bemisol.
Bahor qaytmas, yonuvchi qorman,
Yo no‘noq qo‘l butagan nihol.

Shu kunlarda bahorga zorman…

ZULFIYAXONIM QIZLARI

Qadam bossam gullaydi chechak



Nargiza OXUNOVA

* * *

Ko‘zlaringda bordek bahorim,
Ko‘zlaringda mening xumorim.
Angladimki, ko‘zlaringdadir
Yaratganning menga izhori.

Ko‘zlaringda ko‘zimni topsam,
Ko‘zlaringda izimni topsam.
Oqib borib qirg‘oqlarida
Eng pokiza so‘zimni topsam.

Ko‘zlaringda tonglarim otsa,
Ko‘zlaringga armonim botsa.
Umrimning har soniyalari
Ko‘zlaring-la ko‘zimda qotsa.

Ko‘zlaringda kulsa g‘amlarim,
G‘am gullagan oniy damlarim.
Yoqar bo‘lsam, ko‘zingga yoqqum
Umidimning butun shamlarin.

Ko‘zlaringni ko‘zimga qada,
Ko‘zlaringni o‘zimga ata.
Unib chiqsin dilistoningdan
Ikkimizga atalgan qadar.

Ko‘zlaringda ko‘zim tavofi,
Ko‘zlaringda umrim savobi.
Agar bilsang, ko‘zlaringdadir
Borligimning mangu javobi.

Guli Nigor AVAZOVA

* * *

Sog‘inaman. Kutaman.
Ostonamdan o‘tolmaydi vaqt.
Sen ketding-u, kelmay qoldi –
Shodlik va’da qilgan baxt.
Ko‘zlarimni yumib yashadim –
Hijroningda kuymay deb.
Lablarimni yamab yashadim –
Firoqingni kuylamay deb.
Biroq
Tomir uyg‘oq, ruh uyg‘oq –
Qo‘yarmidi hissiz, tuyg‘usiz?!
G‘amlab olib sabrdan ko‘proq
Izlab ketdim o‘zligim sensiz…



Kumush ABDUSALOMOVA

BIR SANDIQ SO‘Z
O‘z sepimga hayajonda ko‘z soldim:
Birdan qamashib ketdi ko‘z oldim.
Eng sara, eng go‘zal, eng dilbar –
Onam sepimga bir sandiq So‘z soldi.

Bu so‘zlarni so‘zlaganda el dadil!
Bu so‘zlarni so‘zlaganda er dadil!
Bu so‘zlarni so‘zlaganda men – dadil!
Ular meni baxt tomonga eltadi,
Bir sandiq So‘z bir umrga yetadi!

“Alla, bolam, alla”, desam bolamga.
“Assalomu alaykum”, deb olamga.
“Xush keldingiz, xush ko‘rdik”, deb bot-bot
Bir sandiq sepimga ko‘ngan odamga!

Atlas so‘zlar, adras so‘zlar, bo‘z so‘zlar,
Shoyi-ipak so‘zlar, banoras so‘zlar,
Baxmal so‘zlar,
movut so‘zlar, xos so‘zlar,
Xoksor so‘zlar, balandparvoz so‘zlar!

Onam yana solibdi bir nayqamish.
Momolarning o‘gitini payqamish:
Uyda ona tili jaranglab tursa,
Yov bostirib kirgani ham hayiqa(r)mish!

Yana takror sandiqchaga ko‘z soldim.
O‘z qizimga qoldirgani qarz oldim.
Eng shirin, eng achchiq va mukammal –
Onam sepimga bir sandiq so‘z soldi!



Madina NORCHAYEVA

* * *

Meni qaytadan chiz,
Bo‘yog‘ing yetsa,
Bor sovuq ranglarni yuborgin sarflab.
Bu daydi ruhimni
Ha, ayni shu kez
Tomchilardek yuvib ketmoqda harflar.

Meni qaytadan chiz,
To‘qnashmasin hech
Ojiz siyratimda qoralar, oqlar.
Daraxt tanasidan tomgan shiradek
Ko‘rinib to‘kilsin ko‘nglimdan dog‘lar.

Meni chiz,
Axir, men tugallanmadim,
Mudom og‘riq berar yakunsiz qismim.
Ruhimga moslab chiz vujudimni ham
O, shunda ne shakl topajak jismim?

Chizaver,
Chaplayver, ranglar dodlasin,
Ko‘zimni qadahdek tasvirga yo‘g‘ir.
Nigohim to‘kilsa, tuproq yodlasin,
Maysalar yig‘lasin istig‘for o‘qib.

Meni qaytadan chiz...



Feruza XAYRULLAYEVA

* * *

Bolalik chog‘imda
rahmatli bobom
hovlimiz ortida turgan qirlarni
ko‘rsatib der edi:
“Mana shu qirlar
bir kun tog‘ bo‘lar!
Agar odamlar
ustiga chiqqancha tepkilashmasa”.
Qo‘ltiqtayog‘ida qiynalmay yurib
(men shunday o‘ylardim har holda),
Qirning etagiga eltardi meni.
“Qara”, – derdi, jimirlab turgan
jimitday buloqqa niqtab barmog‘in.
– Mana shu buloq
hammaga yetar,
agar odamlar,
bo‘g‘ib qo‘ymasalar yoshli ko‘zini…
Bu gaplarga ancha vaqt bo‘lgan.
Buloq qurib bitdi,
Bobom ham…
Qirlar nima bo‘ldi dersiz,
Qirla-ar!
Qirlarni sog‘inaman!
Biroq borgim kelmaydi
qishloqqa sira.
Borsam yig‘latar –
O‘z bo‘yidan oshmagan qirlar!..



Nozima HABIBULLAYEVA

* * *

Nimyorug‘ xonaning bir burchi horgan,
Qo‘lingiz tonggacha qalamga tutqun.
Xayoldan bu holni olib, devorga
Soyangizni chizib o‘ltiradi U.

Shamolga aylanib keladi goho
Qanot bog‘lay deya qog‘ozlariga.
Siz bor hovuchlarga to‘lar “iloho!”,
Tebranib ketasiz ovozlarida.

Qarshingizdan chiqsa, titroq yugurib,
Nafasi bo‘g‘zida bo‘linar yarim.
Ko‘zingiz ko‘ziga to‘qnashmay turib
Sochilib yayraydi ko‘zmunchoqlari...

Intiq ko‘changizdan o‘tmagan hamon,
Uning ham ko‘chasi ko‘rmagan sizni.
Yuz bor suhbatida bo‘lgansiz, ammo,
Tanimaysizmi?

Bilmaysiz, bir qizki, o‘ylari harir,
U sevgan dengizdek nigohingiz jim,
Birov payqamasin deya, tunlari
Tushiga berkitib uxlaganlarin.

Siz so‘zga burkaysiz uni tamoman,
Kun kelar,
o‘shandan boshlanadi kun.
Bir umr yop-yorug‘ xona ichra ham
Soyangizga do‘nib o‘ltiradi U!..



Sarvinoz TULIYEVA

* * *

Qadam bossam gullaydi chechak,
Yurgan yo‘lim – o‘tmishdagi bog‘.
Qo‘llarimni tutaman senga,
Gulbog‘imga qo‘ndirmagin zog‘.
Oramizda Amu oqar tinch,
Osmondagi yulduzlarcha kek.
Umidlarga qanoting bog‘lab
O‘zing birlan yashnat g‘unchadek.

Yaqin qolmish baxtning qasriga,
Mening uchun yasalar taxtim.
O‘zgalardan axtarmoq nechun?
O‘zligimda yashaydi baxtim.



Yulduz O‘RMONOVA

* * *

Qanday yashashgan ekan
Qadimdagi odamlar,
Hali o‘chirg‘ich degan
Narsa bo‘lmagan damlar?

Yozishgandir bexato
Nazarimda u paytlar.
Yozishmagandirlar yo
Oshiqlar ishqiy baytlar?..

Yo‘q! Asli qadimdan ishq
Har qalbga soya tashlar.
Bunga guvohdir bag‘ri
O‘yilgan qoya toshlar.

O‘sha yozuvlar hanuz
Yo‘qolmagan, ko‘chmagan.
Qancha qor-yomg‘irlarning
Ostida ham o‘chmagan!..

Dunyo o‘zgargan sayin,
O‘zgardi butkul zamon.
Bugun hamma narsaga
Topiladi bir imkon.


Qog‘oz qoralab tunlar
Qalb qushim uchiraman.
She’r to‘kilar qalamdan,
Yoqmasa o‘chiraman...

Sharob rangi ketadi,
Ketar siyoh dog‘i ham.
Ketarmikin, akajon,
Dilda dog‘ qoldirsa g‘am?..

O‘tmishda xato bisyor,
Ko‘ksimda alam g‘ij-g‘ij.
Bormikan xotirani
Tozalovchi o‘chirg‘ich?..

Boshlanishi 1-sahifada.

MAKTAB VA BIZ



Bu yaxshimi yo aksincha? Ijtimoiy tarmoqdagi faollarning ayrimlari “Maktab qamoqxona emas”, “Milliy gvardiyaning boshqa qiladigan ishi yo‘qmi?” kabi gaplarni yozib chiqdilar. Bu “faol”lar orasida kecha ko‘rgan noxush tushini ham, tushlikda yegan ovqatini ham suratga olib “FB” sahifasiga qo‘yib dunyoga doston qiluvchi g‘alati toifalar topiladiki, odatda ularning ko‘pchiligi pala-partish, imlo va uslubiy xatolarsiz yozolmaydilar.

Albatta, chuqur o‘ylanmagan bu gap-so‘zlar maktab o‘quvchisining telefonlarida aks etadi. Keyin o‘quvchi qanday fikrga keladi? Biz yangi tashabbus ko‘tarilganda uni bo‘g‘ishga chog‘lanmayapmizmi? Balki bir natija chiqar? Hech bo‘lmaganda, darsga bormay, ko‘cha-ko‘yda daydigan o‘quvchilar tartibga tushar-ku...

Jahon tajribasiga murojaat etaylik. Fransiya politsiya departamentida bolalar va yoshlar huquqbuzarligining oldini olish bo‘limi bu sohadagi turli tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirib boradi. Jumladan, uning voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlikning oldini olish bo‘yicha “Yoz – yoshlar”, “Ta’til” singari keng qamrovli tadbirlari bor. Bu loyihalarni fransuz politsiyasining harakatdagi respublika xavfsizlik kuchlaridan (bizdagi Milliy gvardiyaga o‘xshash) maxsus saralangan, yetarli psixologik-pedagogik tayyorgarlikdan o‘tgan xodimlari pedagoglar yordamida amalga oshiradi.

Fransiyada huquqbuzarlikning oldini olish maqsadida mas’ul idoralarning vakillaridan tuzilgan kengashning oltmish sakkiz nafar a’zosi bo‘lib, ularning tarkibiga 3 deputat, 2 senator ham kiritilgan. Tasavvur qiling, hozir Fransiyaday rivojlangan davlatda 400 ta shunday kengash faoliyat yuritmoqda.

Hozirgi maktab hayotini bundan yarim asr oldin o‘qigan bobolargina emas, o‘n yil avval maktabni bitirgan ota-onalar ham to‘liq tasavvur etolmaydi. O‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi muammolar esa yildan-yilga ko‘payib bormoqda. 2023-yil davomida salkam uch ming (o‘n yil oldin – 2004-yilda 918 ta) o‘quvchi jinoyat sodir qilganini o‘qib, ahvol biz o‘ylagandan jiddiyroq ekanini tushundim. Ma’lum bo‘lishicha, voyaga yetmaganlar sodir etgan jinoyatlar soni ham oshgan, umuman, respublika bo‘yicha og‘ir tan jarohati yetkazish 160 taga, nomusga tegish 38 taga, o‘g‘rilik 36 taga, giyohvandlikka aloqador jinoyatlar 15 taga ko‘paygan. Bunday achinarli ahvolga tushish oqibati yuzasidan ayrim mulohazalarni o‘rtaga tashlash foydadan xoli bo‘lmas.

TELEFON BOLALARI

Yaponiyalik mutaxassislar 1990-yildayoq bolalarni “terebiko” – “televideniye bolalari” deb atashgan edi, chunki yapon bolalari o‘sha vaqtda har kuni 3-6 soat vaqtini ekran qarshisida o‘tkazgan ekan. Hozirga kelib, nafaqat bolalarni, ota-onalarni ham Internet o‘z domiga tortib ketmoqda. Katta maktab yoshidagi o‘quvchilar orasida bu ko‘rsatkich anchagina sezilarli. Ayrim yoshlar virtual olamga shunchalik bog‘lanib qoldiki, ular bir kunda 18 soatgacha vaqtini internet qarshisida o‘tkazgan. Ruhiy jihatdan Internetga qaramlik giyohvandlikka tenglashtiriladi. Tadqiqotlarga ko‘ra, dunyo bo‘yicha internetdan foydalanuvchilarning o‘n foizi mana shunday guruhga mansub va ular ruhiy nosog‘lom hisoblanadi.

Albatta, internetning foydali tomonlari ko‘p, ammo har narsaga qiziquvchan, dunyoni kashf etish pallasidagi maktab bolasi qo‘lidagi sehrli quticha – telefonda istagan kino-videoni ko‘rishi mumkin. Bugungi o‘quvchi tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi birinchi tahdid, albatta, bu internetdan noto‘g‘ri foydalanishdir.

Ikkinchidan, noto‘liq, noqobil oilalar sonining ko‘payib borayotgani ham davrimizning og‘riqli muammolaridan biri. Yosh oilalardagi ajralishlar yoki oila, bola-chaqasini uyda qoldirib, mehnat migrantiga aylanganlar haqidagi vahimali raqamlarni keltirib o‘tirishning o‘rni emasdir. Maktablarimizning o‘zi ham noto‘liq oilaga o‘xshaydi, ya’ni bundan yarim asr oldin maktabdagi o‘qituvchilarning aksariyati erkaklar edi, hozir deyarli hammasi ayollardan iborat.

Uchinchidan, keyingi 30 yil davomida maktabda ta’lim-tarbiyani yaxshilash bo‘yicha o‘tkazilgan tajribalarning aksariyati o‘zini oqlamadi, deb aytish mumkin. Jumladan, tez-tez nomini o‘zgartirib turadigan yoshlar tashkiloti maktabga kirib borolmadi, maktabdan tashqarida bo‘lsa-da, bolalarning e’tiborini o‘ziga tortolmadi. “Kamalak” bolalar tashkilotining yo‘nalishlari maqsadga muvofiq tanlangan edi, amalda o‘zini oqlamadi. O‘quvchilarni bilim olishga, kasb o‘rganishga yo‘llaydigan bolalarning o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlari, ayniqsa, bugungi kunda juda zarur.

To‘rtinchidan, darsligi, malakali o‘qituvchilari, moddiy-texnika manbasi to‘liq shakllanmagan ko‘plab kasb-hunar kollejlari tezda tarixga aylandi. Bugun kun tartibiga olib chiqilgan davomat muammosi aynan o‘shalarda kuchaygan edi. Kasb-hunar kollejlari uchun mahobatli binolar qurildi va negadir ular keyinchalik to‘lig‘icha maktabga berilmadi. Afsuski, 1997-2017-yillar oralig‘ida, qariyb chorak asr davomida kollejlarni bitirganlar uchun ish o‘rinlari yaratilmadi.

Beshinchidan, darslik masalasi. O‘ttiz yil ota-onalar va o‘quvchilar orzu qilgan darslik hamda o‘quv qo‘llanmalarini yaratishga kamlik qildi.

Kutubxonalar nochorligi, bolalar gazeta-jurnallarining maktabga yetib bormasligi, fan to‘garaklari ishlamasligi va hokazo muammolar borki, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, bolalarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishdagi vazifalarning ayrimlari unutilayotganga o‘xshaydi.

Bugungi maktab bolalarining peshonasiga yozilgan bunday “ko‘rgilik”larni istagancha keltirish mumkin. Qolganini o‘zingiz o‘ylab ko‘ring va bolalar kelajagiga biz – kattalar raxna solayotganimizni tan oling.

MUALLIM MUAMMOLARI

Keyingi yillarda davlatimiz tomonidan o‘qituvchi-murabbiylarga katta e’tibor qaratildi. Ularni obodonlashtirish va qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb qilishga barham berildi. Maktablardagi ish sharoiti yaxshilandi. O‘qituvchi faqat o‘z ishi bilan shug‘ullanmoqda. Ammo uning o‘z ishini samarali tashkil qilishiga nimalar xalal bermoqda?

Avvalo, o‘quvchilar bilimini reyting usulida baholaymiz, degan tashabbuskorlar qog‘ozbozlikni avj oldirishdi. Bechora o‘qituvchi dars o‘tish o‘rniga reyting jurnalini to‘ldirib o‘tirardi. Keyin bir zamon keldiki, qog‘ozbozlikni bartaraf etamiz, deb ko‘plab yozuv-chizuvlar to‘xtatildi. Hatto “konspekt” ham yozilmaydigan bo‘ldi. Ya’ni, bu – darsga tayyorlanmasdan kirish degan gap. El ichida obro‘ topgan mohir pedagoglar faoliyatini kuzatganda ko‘rdimki, ular nafaqat konspekt yozadi, balki tarqatma materiallar tayyorlaydi, dars samarali bo‘lishi uchun turli vositalar topadi. Xullas, mohir o‘qituvchi birgina darslik bilan chegaralanmaydi. Yaxshi o‘tilmagan dars esa, ishlamay maosh olishdir, bu ko‘zga ko‘rinmagan o‘g‘rilikdir.

Keyinchalik reyting usulida baholashdan yana qayta besh ballik baholash tizimiga o‘tildi. Aytishlaricha, hozir yana yuz ballik tizimga qaytish rejasi bor emish...

Tajribaga ko‘ra, har qanday maktab obro‘sini 5-10 nafar tajribali, fidoyi o‘qituvchi ko‘taradi. Ularga nisbat olganda, qolgan muallimlar shunchaki dars beradilar, shunchaki ishga kelib-ketadilar. Hatto butun umr maktabda dars berib, o‘z fanidan bironta shogird chiqarmagan o‘qituvchilar ham topiladi. Yoki, aksincha, maktabga ishga kelganidan besh yil o‘tmay ko‘plab iqtidorli shogirdlar tarbiyalagan yosh muallimlarni ham ko‘rganmiz.

O‘qituvchilarga oylik maosh belgilashda ularni toifalarga bo‘lish ham kutilgan natijani bermaganini ta’kidlash joiz. Endi direktor maktab salohiyatini oshirish uchun yuqori toifali o‘qituvchilarni ishga ola boshladi yoki ishlayotgan pedagoglarning toifasini ko‘tarish ortidan chopdi. Shu bois, o‘quv-tarbiya jarayonini rivojlantirish ikkinchi darajali masalaga aylandi.

Istaymizmi-yo‘qmi, maktabdagi ta’lim-tarbiya jarayonining negizini 45 daqiqali dars tashkil qiladi. Dars mazmunini boyitishda esa uslubiy xizmat tizimi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tuman miqyosida ishlaydigan uslubxonalar tugatilib, bu xizmat viloyat Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari zimmasiga yuklatilgan.

Ularning viloyatdagi barcha maktablarga yetib borishini, to‘liq qamrab olishini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Qolaversa, uslubchining maoshi ozligi sababli respublika bo‘yicha 322 ta shtat ajratilgan bo‘lsa-da, ularning yarmidan ko‘pi bo‘sh turibdi.

O‘qituvchilar malakasini oshirish masalasi ham shunday mavhum tus olgan. Ya’ni, avvalgi institutga borib 144 soatli malaka oshirishlar o‘rnini “onlayn” o‘qitish egallagan. Agarda bu ish aksincha qilinganda ma’qullagan bo‘lardik.

Dars jarayonining nazorati yuritiladigan sinf jurnali hamda o‘quvchilarning kundalik daftarlari shoshma-shosharlik bilan elektron shaklga o‘tkazilishi oqibatida bugun maktabdagi o‘quv jarayonlari tahlil qilib bo‘lmas holga keldi. O‘quvchining darslarni o‘zlashtirish natijasini ko‘rish maqsadida ota-onalarning “Kundalik.com.” saytiga kirishlari muammoli masala. Chunki har bir oilada kompyuter yoki smartfon bo‘lishi lozim. Qolaversa, “Kundalik.com.”ni yuritish uchun mamlakat bo‘yicha har bir sinf xonasiga kompyuter qo‘yilib, maktabda internet tizimi muntazam ishlashi talab qilinadi. Bunga mablag‘ qani? Xullas, bu sohada ham ishlar o‘lda-jo‘lda ahvolga kelgan.

Navbatdagi muammo – darslik yetishmasligi, qolaversa, davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlarining darsliklarga mos kelmasligi singari noaniqliklar borki, yosh o‘qituvchi dabdurustdan o‘z yo‘lini topolmaydi.

Shuningdek, yuqorida ta’kidlangan – o‘quvchilarga xavf solib turgan tahdidlar ham o‘qituvchining ta’lim-tarbiya jarayonini namunali tashkil etishidagi to‘siqlar hisoblanadi.


Umuman, maktab ta’lim tizimining tarixi va bugunini chuqur bilmaydigan turli idoralar vakillarining maktab ta’limi jarayoniga aralashuvi, vazirlik faoliyatini uzoq muddatga mo‘ljallangan aniq dasturlar asosida tashkil etmasligi, tizimdagi beqarorliklar – barcha-barchasi o‘qituvchilarning aniq maqsad yo‘lida og‘ishmay ishlashlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa oxir-oqibat o‘quvchilar orasida davomat pastligi va bilimsizlik, voyaga yetmaganlar qarovsizligiga olib keladi.

Humoyun AKBAROV

ZARDA

“BO‘YINTURUQ” yoxud kredit virusi

A-a-a, muxbir ukam? Maza yo‘qmi deysanmi? Bemazada ne maza, deganini eshitmaganmisan? Kovid-povid deysanmi? Attang, ming attang-ki, kovidmasman. Undan battari ilashdi. Turqingga Tohir sopolni loykuragi! O‘l-a, menga SPID qaydan yuqsin? Kallami bu, suvqovoqmi? Chapaniligim o‘z yo‘liga, omalekin qing‘ir yo‘lga qadam qo‘ygan yigitmasman. Ishonmasang Lobar xolangdan so‘ra.



Uzun gapni qisqasi shuki, dardi bedavo kredit virusiga yo‘liqdim. Ha-a, belgilarimi? Endi, alomatlari oddiy. O‘zi buni nega so‘rayapsan, xumpar? Bugun krediti yo‘q odam borakanmi? Shu... bosh og‘rig‘i, muttasil yurak o‘ynog‘i, xavotir, aybdorlik hissi, har oyning boshida qo‘l-oyoqlar qaltirashi, uyqusizlik talvasasi... Yetadi deysanmi? Hammasini yozasanmi o‘zi?

Tushunmayman, bankdagilar to‘lay olmayotganimdan nega norozi? Hayronman. Pulim bo‘lmagani uchun kredit olganimni bilishadi-ku! Qancha deysanmi? Bilganingda nima qilarding? Yozsang, mo‘jiza yuz berib, rahmatli boybuvam tirilib kelib, buxori tanga to‘la yonchig‘ini tizzamga tashlarmidi? Ha-a, o‘zi nimaga kredit olgansiz deysanmi? Takasaltang o‘g‘limda oypod, xotinda aypon, qizimni butun boshli sepi, qudalarga olingan sarpo-suruqlar, mebel deganday... O‘zingizda-chi deysanmi? Meni bo‘ynim to‘la qarz... Ha-a, endi kreditni yopish uchun olingan qarz-da! Ayponni nima qiladi? Nimaymish, gapga borganda rasmga tushib, instagramga qo‘yib maqtanarmishlar... O‘zlari nega to‘lamaydi? Biror joyda qarsillatib saqich chaynaganiga pul to‘lashganini eshitganmisan? Ha, balli! Bilasan, men shu paytgacha biror joyda bandasiga gapimni bermagan yigitman. Mushugimni birov pisht deyish u yoqda tursin, qovoq solib ham qaraganmas. Endi arzanda qizim uchun eshikma-eshik yalinib, kredit yoparga qarz tilanib yuribman. Menga buyam kam! Ko‘ngil bo‘sh bo‘lsa, ko‘ngilsizlik qo‘sh bo‘lar degani chin. Qizalog‘imni mebellari o‘rtada ekanu krediti kuyovto‘raga harommish. He, o‘rgildim, senday yigitni gultojixo‘rozidan!

Azbaroyi xudo, undanam qizig‘i bor! Kreditga buyum olish hozir moda bo‘pti. Mana, tunov kuni qo‘shnimiz Toshpo‘lat kreditga muzlatgich olgan ekan. Uni ko‘rib, Atham naynov men sendan kammi deb, muzlatgichga qo‘shib kondisioner ham opkepti. Endi bu yog‘ini so‘rasang, muxbir ukam, boshqa qo‘shnilar ham bu kredit poygasidan qolib ketmay, deb yuragiga g‘uluv tushib, bittasi go‘sht qiymalagich, boshqasi sharbatsiqarni achomlab... boshini ixtiyoriy qarz sirtmog‘iga tiqqan.

A, to‘layaptimi, deysanmi? Qayoqda deysan. Tariqcha aqli bo‘lganida shuncha kreditni olarmidi? Xumkallalar bir-biridan kreditni to‘lash uchun qarz oladi. Endi qarzini qaytarsa, sabil qolgurni to‘lash vaqti keladi-da! Shuning orqasidan har xil qing‘irliklar ham bo‘p turibdi. O‘tgan tunda Abbos lapashang o‘zining ishxonasiga o‘zi o‘g‘irlikka tushibdi. Kreditining poizlari ko‘payib ketganmish. Yarim tungacha “pirxonada” qolib, hammaning ketishini kutibdi. Novutbukini qo‘ltiqlab, endi juftakni rostlayman deb turgan ekan, qorovul sezib qolib, g‘ippa giribonidan bo‘g‘ibdi. Ushlabdi-da, melisaga topshirib yuboribdi. Melisa ham obdon amrima’ruf qilib, chilyosinlarni o‘qib, krediti borakan deb, rahmi kelib qo‘yib yuborganmish.

O‘lmagan qul ko‘raverarkan, undan ham qiziq hangomalar bo‘p turibdi. Eshit, e tilponingni nega burnimga tiraysan? Nima? Yozyapman? Unda mayli, yaqinroq opke! Xo‘p, ukam sho‘x, eshit. Ko‘cha boshidagi Sulton daroz, aqli kalta bor-ku, ana o‘shanga kreditga ellikta tovuq berishganda, bir haftacha: “Kuniga har biridan ikkitadan tuxum olyapman”, deb maqtanib yurdi. Ammo, tovuqlaram rosa egasini topibdi! Koshkiydi, bu darozda xo‘rozcha aql bo‘lsa. Don-suviniyam eplab berolmaganmi deyman, bir haftada ellik tovuq harom qotdi. Nima emish, tovuqlar ob-havoga moslasholmaganmish. Nima, afrikalik yo antarktidalikmidi manglayi qoralar? Shu bilan tovuqbozlik an’anasi to‘xtab qolgani yo‘q. Uning yon qo‘shnisi Qo‘chqorboy ham bir ko‘rsatib qo‘yish uchun yuz tovuq, don-dunini kreditga oldi. Oliyhimmat kreditchilar tovuqlarni eson-omon egalariga topshirib, ko‘chaning boshiga yetgunicha Azim alkash qo‘ra oshib, besh-o‘ntasini qopga qalab, yelkalab aroq magazinga ravona bo‘pti. Hay deguncha, jo‘jaxo‘rozlarni “yarimta”ga barter qivoribdi. Bu deyman, bankda o‘tirganlar odamgarchilikda xotami toy ekan-da. Qara, kreditniyam epi borga berishmaydimi? Tovuq boqishni bilmasang, cho‘ntagingda miring bo‘lmasa, kreditni boshingga urasanmi? Chog‘ing kelsa tovoqqa tirmash deb qo‘ygan joyi bor, xo‘pmi? Davlat o‘zingni o‘ngla deb ko‘mak qo‘lini cho‘zsa, bularing barmog‘iniyam tortqilaydi-ya!

Chidalmagan o‘tingga jiyda yema, deganakan mashoyixlar. Iye, ha, ichburug‘ yuqtirgan bangiday rangingda rahmon yo‘q? O‘bba, akangni ukasi, senam kredit tutqanog‘iga ilashganlardanmisan? Balli, hiqillab borsam, o‘ksib chiqdi degani shu turxatdir-da. Buni yozib “Jadid”ga chiqaraman, gonorar olib, kreditimni yopaman deysanmi? Xohlasang, serial qivor. O‘ziyam haligi... ha-a, “Esmeralda”si bo‘lardiyu... o‘shangayam dam berasan. Omalekin, ko‘zing o‘ynamay o‘lgur, qalam haqi durustroq unib qolsa, akangniyam osh-poshga aytarsan...

OVSAR

2024-yil 1-mart
№ 10(10)

Adib XOLID:

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI — BEBAHO XAZINA



Boshlanishi 1-sahifada.

O‘zbekistonga taxminan 1980-yilda o‘rta maktabda o‘qib yurgan paytlarim qiziqib qoldim. Markaziy Osiyo men yashayotgan joyga juda yaqin ekanini tushundim, lekin Pokistonda O‘rta Osiyo haqida ma’lumot juda oz edi. Sovuq urush davri bo‘lgani uchun sayohat juda qiyin, ma’lumot kam edi. Men imkon qadar mintaqa haqida ko‘proq ma’lumot olishga qaror qildim. Kanadadagi universitetga borish baxtiga muyassar bo‘ldim. Men MkGil (McGil) universitetida o‘qidim va u yerda rus tilini o‘rganishni boshladim. Dastlabki qiziqishim iqtisodiy rivojlanish masalalariga qaratilgan edi, lekin men AQSHning Viskonsin universitetida doktoranturada o‘qir ekanman, tarixga murojaat qildim. 1986-yili ilmiy izlanishlar uchun Sovet davlatiga bora olaman deb o‘ylamagandim. Ammo shukrki, 1993-yilda dissertatsiya himoya qilgunimga qadar hamma narsa o‘zgardi va sovet ittifoqi mavjud bo‘lmay qoldi. Men tadqiqot mavzusi sifatida jadidlikni tanladim, chunki meni islom va zamonaviylik o‘rtasidagi munosabatlar va musulmon jamiyatlari bu savolga qanday munosabatda bo‘lishlari uzoq vaqtdan beri qiziqtirar edi...”

Olimning dastlabki “Musulmon madaniyatining islohotchilik siyosati: Markaziy Osiyoda jadidlik” asari jadidlik harakati bilan islomchilik va islohotchilik masalalariga bag‘ishlangan bo‘lsa, ikkinchi kitobi “Kommunizmdan keyingi islom. Markaziy Osiyoda din va siyosat” deb nomlangan. “O‘zbekiston tavalludi: SSSRning ilk davrida millat, imperiya va inqilob” deb nomlangan tarixiy asari rus va o‘zbek tillarida chop qilindi. “Markaziy Osiyo: imperiya istilolaridan hozirga qadar yangi tarix” asari esa muallifning tadqiqotlari ko‘lami yanada kengayganini ko‘rsatadi.

Adib Xolidning “O‘zbekiston tavalludi: SSSRning ilk davrida millat, imperiya va inqilob” asari ko‘p jihatlari bilan olimu adiblarga, ijodkor ziyolilarga va umuman, millatning o‘zligini tanishida muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. “Akademnashr” nashriyoti tomonidan chop qilingan ushbu kitob orqali o‘zbek o‘quvchilari Sardor Salim tarjimasida Adib Xolid asari bilan ilk daf’a tanishib turibdi. Bunga qadar asarning rus tilidagi tarjimasi nashr etilgan edi.

Kitobning “Kirish” qismida muallif masalaning qo‘yilishi haqida to‘xtalib, “Afsuski, O‘zbekistonda vujudga kelgan tarixnavislik o‘z qonuniyatiga ega alohida, yakrang soha bo‘lib qolyapti. Sovetcha talqin milliy talqin bilan almashtirildi, biroq tarix davlat homiyligida yozilayotgani kabi sovet o‘tmishi bilan metodologik va institusional uzviylik ham davom etmoqda. Natijada ko‘p hollarda sovetcha kategoriyalarni tiyish yoki batamom yo‘qotish o‘rniga ularni sharoitga moslab qo‘llash kuzatilmoqda” singari e’tirozini bayon qilish bilan birga, bu sohaga B.Qosimov, N.Karimov, Sh.Turdiyev va boshqa adabiyotshunoslardan keyin tarixchilar kechikibroq kirishgani va hamon masalani o‘rganishda adabiyotchilar faolroq ekanini aytadi.

Inqiloblar davrida millat, taraqqiyot va tamaddun haqida to‘xtalar ekan, “Inqilob jadidlik harakatini keskinlashtirdi, dunyoqarashni kengaytirdi, lekin u jadidlikni yaratmadi” degan haqli e’tirof bilan jadidlik ildizlari 1860-1870-yillardagi rus bosqinidan keyingi o‘n yillikda O‘rta Osiyo shaharlarida vujudga kela boshlagan ziyolilarning sa’y-harakatlari bilan bog‘lanishini asoslab ko‘rsatadi: “Shuningdek, bu tushuncha jamiyatda yetakchilik da’vosiga asos soldi va yangicha siyosatni boshlab berdi”, deyish bilan muallif jadidlik ildizlarini Rossiyadagi uch inqilob (1905-1907-yillar, 1917-yil fevral va oktyabr) bilan bog‘lab tushuntirgan tarixchilarga jiddiy javob beradi. Shu bilan birga jadidlik yo‘li to‘g‘ri, tekis yo‘l bo‘lmagani, uning o‘ziga xos murakkabliklari mavjudligi, hatto hududlardagi harakatlar bir-biridan farq qilishi, shuningdek, “1931-yildagi O‘rta Osiyo 1917-yildagi O‘rta Osiyodan butkul farqli makon bo‘lgan. 1930-yillarda sovet ittifoqi zaif bo‘lgani bois kuch ishlatishga majbur bo‘lgan, deb xulosa chiqargan so‘nggi tadqiqotlarga butkul qarshi emasligini” ham bayon etadi. Bu jihatdan mahalliy jamiyatlardan musulmon ziyolilarining ishtiroki faol bo‘lgani, ittifoqda hukumat tavsiya etgan milliy loyihalar o‘zini oqlamagani, “millat g‘oyasi O‘rta Osiyoga inqilobdan ancha avval kirib kelgani, lekin aynan cheksiz imkoniyatni va’da bergan inqilob millat tushunchasini uzil-kesil ziyolilar maslagining markaziga qo‘yganini” asosli misollar bilan isbotlaydi. Bu kabi dalillar sho‘ro tarixchilari tomonidan yetarli o‘rganilmagani bois manbalar va ularning talqinlari xususida munozarali fikrlar hamon davom etayotgani qalamga olinadi. “Kitobdagi eng muammoli manba – biz o‘rganayotgan yillar CHK, GPU, OGPU va NKVD deya nom chiqargan siyosiy xavfsizlik tashkilotining uyum-uyum qog‘ozlari” bo‘lib, ular hamon rus va mahalliy olimlar uchun yopiqligicha qolayotgani qayd etiladi. Kitob mundarijasidan ayon bo‘lishicha, “Chor davri O‘rta Osiyosida ziyolilar va islohotlar” muammosidan boshlangan tarix taxminan 1927-yildagi islom institutlariga hujum, masjid va ziyoratgohlarning yopilishi va birinchi qatag‘on (1929) voqealarigacha bo‘lgan tariximizning eng notinch sahifalarini qamrab oladi. Shuningdek, asar nihoyasida muallifning madaniy inqilob (1936), “katta terror” (1937-38) voqealariga ham munosabati aks etgan.

Bulardan tashqari, internet saytlariga “O‘zbekiston: millatning tug‘ilishi” asari ham qo‘yilgan edi. Unda Toshkent shahri markazidagi Amir Temur xiyoboni tarixi haqida so‘z yuritiladi: “Qachonlardir bu joyda Turkistonning birinchi general-gubernatori Konstantin Kaufman (1818-1882), keyin esa Karl Marks haykali turardi. Hozir bu joyni Temurning otliq haykali egallagan”. Ittifoq tarqalgandan keyin Amir Temur millatning ramziga aylangani, uning davrida ilm va madaniyat yuksak taraqqiy etgani aytilib, buning dalili sifatida Mirzo Ulug‘bek va Alisher Navoiy faoliyati tilga olinadi. Bu hududni ma’lum muddat Chingizxonning uchinchi o‘g‘li Chig‘atoyxon boshqargani uchun “Chig‘atoy hududi” deb nomlangani va bu nomlanish eski o‘zbek tili va mumtoz adabiyotiga nisbatan ham qo‘llangani aytiladi. Mahalliy xalq – turklar qadimdan Markaziy Osiyoning tub aholisi bo‘lib, unga “o‘zbek” atamasi nisbatan keyin XVI asrdan boshlab muomalaga kiritilgani rus tarixchisi A.Y.Yakubovskiy qarashlariga tayangan holda bayon qilinadi. Shuningdek, muarrix A.Yakubovskiyning “chig‘atoy tili va adabiyoti”ga sho‘rolarcha mafkura nuqtai nazaridan yondoshganini aytadi. Asarning “Chig‘atoychilik va o‘zbek ziyolilari” bobida O‘zbekistonda jadidlik harakati islohotchilik yo‘lini tanlagani, chig‘atoychilik yo‘li turkchilikning davomi bo‘lgani ham qayd etilgan. Fitratning Istanbul davri (1909-1914) da turkchilik g‘oyalariga berilgani, uning tomonidan tuzilgan “Chig‘atoy gurungi” tashkiloti mana shu g‘oyalarning davomchisi ekani XX asrning 20-yillaridan adabiyotshunoslikda kechgan ziddiyatlar misolida ko‘rsatiladi. Fitrat domlaning 1921-yil yanvarda bo‘lib o‘tgan Til-imlo qurultoyidagi nutqiga tayanib o‘zbek tili va adabiyoti turkiy xalqlar ichida eng boy va qadimgisi ekanligi haqidagi fikrlar ilgari suriladi. Asarning “O‘zbek millatining belgilanishi” bobi ancha munozarali bo‘lib, bu o‘rinda o‘zbek millatining shakllanishiga doir sobiq sho‘rolar davrida aytilgan fikrlar qayd etilsa-da, “O‘rta Osiyodagi milliy-hududiy chegaralanish” deb nomlangan voqealar haqida mamlakatga yuborilgan Rudzutak rahbarligida Buxoro, Xorazm va Turkiston respublikalari o‘rnida O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston kabi ittifoq-dosh respublikalar tuzilgani, bu jarayon ancha murakkab kechgani, unda M.Said-jonov, F.Xo‘jayev kabi davlat arboblarining masalaga munosabati ochiqlanadi. Fitratning 2,5 yildan ortiq Buxoro xalq jumhuriyati faoliyatidagi ishtiroki, so‘ngra Moskvada yashagan davri hamda 1925-yilning oxirlaridan boshlab Fitrat tomonidan yaratilgan adabiyot va san’at masalalari bo‘yicha fundamental tadqiqotlar e’tiborga olinadi. Bu tadqiqotlarning qabul qilinishi oson kechmagani va J.Boybo‘latov bilan bo‘lgan munozaralar “Mafkuraviy jabha” sarlavhasi ostida beriladi. Asarning “Xulosa” qismida “hozirgi o‘zbeklar... O‘zbekiston hududida uzoq va davomli taraqqiyot”ga ega ekanligi, “Xoja Ahmad Yassaviy asarlarining tili Lutfiy va Alisher Navoiy vositasida shakllanib, hozirgi o‘zbek adabiy tili haqidagi filologiya ilmiga yetib kelgani” to‘g‘risidagi Yakubovskiyning 1941-yildagi fikrlari keltiriladi. “Agar Fitrat hayot bo‘lganida Yakubovskiyning bu fikrlarini to‘liq quvvatlagan bo‘lur edi” tarzidagi umumlashma bilan asarning ruscha varianti yakunlanadi.

Ma’lum bo‘lishicha, bu maqolaning ayrim o‘rinlari biz o‘zbek tilida o‘qiyotgan “O‘zbekiston tavalludi...” asari bilan mos keladi, asar “Xotima”sida muallif “1920-yillarga xos imkoniyat va umidlar 1929-1931-yillardagi tozalashlar natijasida puchga chiqqan bo‘lsa-da, 1938-yil qatag‘onlari inqilob baxsh etgan shijoatni uzil-kesil so‘ndirdi.... jadidlar avlodi tugatildi”, deb yozish barobarida inqilobga maftunlik, madaniy inqilob tadbirlari millatga ro‘shnolik keltirmagani bilan xulosalanadi. Yakunda Adib Xolid yozadi: “O‘zbekistonda milliy tasavvur o‘zida ham sovet tizimi, ham XX asr boshidagi musulmon diskursining urug‘larini mujassamlashtirgan”.

Adib Xolidning “O‘zbekiston tavalludi: SSSRning ilk davrida millat, imperiya va inqilob” asarining ingliz tilidagi manbasi kitobning ikkinchi sahifasida ko‘rsatilgan. Biroq nimagadir tarjimada ingliz tilidagi “making” (tashkil topishi), rus tilidagi “sozdaniye” (tashkil qilinishi) so‘zlarining o‘zbekchaga “tavalludi” deb noto‘g‘ri tarjima etilgan. Kitobning 8-bobida esa ayni voqealar “O‘zbekistonning yaratilishi” sifatida tilga olinadi. “Tashkil topishi” (yoki “tashkil qilinishi”)ni tarjimon va nashriyot “tavalludi”, “yaratilishi” so‘zlari bilan tavsiya etayotgani kishini ajablantiradi. Kitobning asl



Hamidulla BOLTABOYEV,
filologiya fanlari doktori, professor

sarlavhasi “SSSRning ilk davrida O‘zbekiston SSRning tashkil qilinishi: millat, imperiya va inqilob” bo‘lishi kerak. Chunki O‘zbekistonning tug‘ilishi – tavalludi XX asrning boshlarida yuz bermaganini oddiy kitobxon ham yaxshi biladi, uning yaratilishi ham sho‘rolar zamoniga to‘g‘ri kelmaydi.

O‘tgan yilning dekabr oyida o‘tkazilgan xalqaro konferensiyada ayni masalalar yuzasida ma’ruza qilgan Adib Xoliddan kitobining “O‘zbekiston tavalludi” deb nomlanishiga munosabatini so‘radim. Muallif bunday nomlanish bevosita tarjimon va nashriyotning “ishi” ekanligini aytdi. Ko‘rinadiki, rus tilidagi maqolada “millatning tug‘ilishi – rojdeniye natsii” deb ataylab millatning tug‘ilishini “kechiktirayotgani” kabi o‘zbekcha nashridagi “O‘zbekiston tavalludi” so‘zlari hali asarni o‘qib ulgurmagan kitobxonni chalg‘itadi. Qolaversa, nashriyot sotuvga chiqarishdan avval shunday reklama bergandi: *“Amerikalik taniqli olim Adib Xolidning ushbu kitobi dunyo xaritasida O‘zbekiston degan davlatning paydo bo‘lishi haqida* (izoh bizniki – **H.B.**). Muallif XX asr boshlarida yurtimizda kechgan murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni chuqur tahlil qiladi, o‘sha davr qiyofasini bor ziddiyatlari bilan tasvirlashga harakat qiladi. Asar yurtimiz tarixiga qiziqqan keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan”. Tabiiyki, buni o‘qigan kitobxonni, ayniqsa, rus shovinistlari tomonidan tinimsiz fikriy hujumlar qilinayotgan bir paytda targ‘ibotchilarning “O‘zbekiston degan davlatning XX asrda paydo bo‘lishi” degan da’vosi o‘zbek kitobxonini mutlaq qoniqtirmaydi, hatto muallifga bo‘lgan ixlosini qaytarishi mumkin. Shuning uchun ham bunday muhim kitoblarni tavsiya etayotganda ularning tarjimasi asliyat sarlavhasigagina emas, uning mazmuniga ham naqadar yaqinligini hisobga olish lozim. Holbuki, kitobning ruscha variantidagi muxtasar reklama o‘zbekchaga nisbatan asliyatga bir muncha yaqinroq edi: “O‘zbekistonning tashkil topishi” kitobida Adib Xolid o‘zbek ziyolilarining mahalliy bolsheviklar va Moskva bilan o‘zaro nooddiy munosabatini ko‘rib chiqib, kutilmagan xulosalar beradi. Muallif uchun o‘zbeklarning yangi jamiyati Oktyabrning natijasi emas, 1917-yilga qadar vujudga kelgan milliy loyihaning amaliyoti, o‘zbek madaniy inqilobi esa, sotsialistik emas, balki musulmon inqilobi natijasidir”.

Adib Xolidning yurtimizning yaqin tarixi va jadidlik masalalariga bag‘ishlangan asarining O‘zbekistonda e’lon etilishi mutaxassislar uchun ham, keng kitobxonlar ommasi uchun ham sohaga doir arzirli manba bo‘la oladi.

TARIX VA TAQDIR

Taniqli qozoq yozuvchisi, tarixshunos Smag‘ul Yelubay yaqinda rossiyalik professor, etnograf V. Sholoshnikovning 1921-yili Orenburgda chop etilgan qo‘lyozma kitobi topilganini e’lon qildi. Undagi ma’lumotlarga ishonadigan bo‘lsak, 1911-yilda qozoqlarning nufusi 8 million nafar, deb ko‘rsatilgan. Qizig‘i shundaki, shu kungacha o‘sha paytdagi qozoq aholisi 4,5-5 million atrofida bo‘lgan, deb kelinardi. E’tibor qiling: faqat oradan 99 yil o‘tib, ya’ni 2011-yilda yuqoridagi aytilgan ko‘rsatkichga erishilgan – aholi soni 8 million nafarga yetgan.

QARDOSHLARNING QONLI QISMATI



Xo‘sh, nima uchun butun bir millatning qariyb bir asr davomida son jihatdan o‘sishi to‘xtab qolgan? “Buning sababini, – deb yozadi Smag‘ul Yelibay, – o‘sha – O‘rta Osiyo xalqlarini qonga belagan, qonrang – qizil imperiya davridan izlash kerak”.

Aslida tarixni yaxshilab o‘rgansangiz, hammasi bolsheviklar hukumat tepasiga kelganidan keyin boshlanganini ko‘rish mumkin. Aynan o‘sha – 1917-yildan boshlab 50-yillarga qadar butun ittifoq mamlakatlari bo‘ylab bir necha marta qatag‘on jarayonlari amalga oshirilgan. Qatag‘on qurbonlari sonini esa har kim har xil taxmin qiladi: birov 15 million desa, boshqasi 20 million deydi. Aniq hisobni esa hech kim bilmaydi.

Lekin 1939-yilgi statistikaga e’tibor qaratsak, negadir qozoqlar 2,5 million kishi bo‘lganini ko‘rish mumkin! Atigi 28 yil ichida 5,5 millionga kamaygan. Savol paydo bo‘ladi: shuncha odam qayerga ketdi?

Alixon To‘ra Sog‘uniyning “Turkiston qayg‘usi” kitobidagi quyidagi parchaga e’tiborni qarataylik: “... oldimizda ko‘chmanchi qozoqlar yashaydigan kichik bir ovul ko‘rindi. Lekin yaqinlashganimiz sari dimog‘imizga qandaydir yoqimsiz, qo‘lansa hid urilaverdi. Shunda hamrohlarimizdan biri, yaxshisi, bu yerni aylanib o‘tmoq kerakdir. U yerdagilarning bari ochidan o‘lib bo‘lgan, dedi”.

Qozog‘im, sho‘rlik qozog‘im,
Vayron qozoq.
Qorong‘uda yo‘l topolmay,
Hayron qozoq.

ABAY

1929-yili, asosan chorvachilik bilan shug‘ullangan qozoqlarning qo‘lida 40 million chorvasi (qo‘y, echki, mol, tuya va hokazo) bo‘lgan, oradan to‘rt yil o‘tib, bu ko‘rsatkich 4,5 millionni tashkil etdi. Ya’ni, ularning o‘nta molidan to‘qqiztasi tortib olinib, davlat hisobiga o‘tkazilgan. Qarshi chiqqanlarni esa, hukumat o‘ziga dushman sanab “quloq” qilgan yoki otib tashlagan. Shu birgina to‘rt yilning o‘zida 200 ming qozoq azamati (fuqarosi) sovuq o‘lka – Sibirga surgun, ziyolilaridan 25 ming nafari esa otuvga hukm qilingan.

Boz ustiga, o‘sha yillarning qishi qattiq, yozi qurg‘oq kelib, o‘troq bo‘lmagan, dehqonchilikdan bexabar, ota-bobosidan chorvadorlik meros bo‘lgan xalq boshiga chinakamiga falokat tushadi.

Haqiqatdan, agar o‘sha davr sharoitidan kelib chiqib qaraydigan bo‘lsak, ochlik balosidan Markaziy Osiyo bo‘yicha eng ko‘p qozoq xalqi nobud bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Tirik qolganlari ham boshqa yurtlarga najot istab, bosh olib ketgan. Urushdan keyingi ta’qib birmuncha susaygan davrlarda ko‘chib ketganlar vatanini istab qaytib kelishgan.

O‘sha tahlikali og‘ir davrda millatni, yurtni ogoh etish, o‘zligini anglash, manaviyatni yuksaltirish uchun bizning jadid bobolarimiz kabi qozoqlarning oqin, ziyoli qatlami ham zahmat chekishdi. Mirjaqup Dulatov, Elixan Bo‘keyxanov, Axmet Baytursinov, Sabit Torayg‘irov shular sirasidandir. Ularning deyarli hammasi otuvga hukm qilingan.

Bugungi kunda 100 mingga yaqin qatag‘on, surgun qurbonlari oqlangan, ularning xotiralari abadiylashtirilgan.

Tarixni unutishga, unuttirishga hech kimning haqqi yo‘q. Mustaqillik ne’matidan bahramand, erkin va ozod avlodlar uchun bu umrboqiy saboq bo‘lmog‘i lozim.

Azamat XUDOYBERGAN

MA’RIFATGA JONIN TIKKANLAR

Boshlanishi 1-sahifada.

Lekin men eski bir varaqchaga chunon qiziqib qolganim uchunmi, kampir uni olib, obdon tomosha qilishimga indamadi.

Otkritka Litvaning Palanga shaharchasidan L.Vayneykini degan kishidan yuborilgan ekan. Bir tarafida yuqorida nomi aytilgan san’at asari, orqasida esa “Ishlar qalay, sog‘-omonmisan?..” qabilidagi odatiy so‘zlardan so‘ng, “Viziya” – bu bizning davlat gerbimiz, o‘lik uyqudan hayotga qaytgan Litva...” degan jumla ilova qilingan edi.

Qiziq, bu g‘aroyib noma qanday qilib toshkentlik keksa ayolning qo‘liga tushib qoldi ekan? Uning muallifi, Vatan ramzini bu qadar aziz tutgan, maktublariga muhrlab qo‘yadigan odam kim?

Bu savol menga uzoq vaqt tinchlik bermadi, nima qilib bo‘lsa-da, uni topishga ahd qildim.


Internetdan topgan ma’lumotim muallif siymosini tiklashga yordam berdi. Bu – litvalik shifokor, olim va jamoat arbobi Lyudas Vayneykis (1869–1938) edi. U taqdir taqozosi bilan rafiqasi – xotiranavis adiba Stase (Stanislava) Vayneykene (1875–1964) bilan birga 1914-yilda Turkiston o‘lkasiga kelib qoladi. Doktor o‘z vatanida “knygnesys” – “kitob tarqatuvchilar” harakatiga rahbarlik qilardi va aynan shu holat uning Turkiston bo‘ylab safarining ibtidosiga aylanadi...

“Knygnesys” so‘zini dunyodagi biror tilga aynan tarjima qilib bo‘lmaydi. U – butun borlig‘i, mohiyati bilan Litvaning ozodlik ramzi, unga faqat Litva xalqigina egalik qilishi mumkin. “Knygnesys” xalq harakati vakillari Litvada ona tilini asrash uchun kurashgan. Uning safi milliy o‘zlikni himoya qilish uchun oyoqqa turgan, ona tili va milliy yozuvni saqlab qolish uchun har kuni o‘lim xavfi bilan yashagan vatanparvarlar qo‘shinidan iborat edi. Ta’bir joiz bo‘lsa, bu fidoyi insonlar litvalik jadidlar edi. Bu kurash naq qirq yil – 1864-yildan 1904-yilgacha davom etadi.

Isyonkor Litvani bosib olgan Rossiya imperiyasi ishni xalqning eng katta ma’naviy boyliklaridan biri – alifbosidan mahrum qilishdan boshlaydi: litvaliklar uchun maxsus kirill alifbosi ishlab chiqilib, 1864-yil 22-maydan majburan joriy etiladi. Kamiga maktablarda litva tilini o‘qitish, litva kitoblari, gazetalari, darsliklarini lotin shriftida chop etish taqiqlanadi. Vilenskiy gubernatori graf Mixail Nikolayevich Muravyov-Vilenskiy litva kitoblarini lotin va gotik shriftlar bilan bosishni taqiqlash haqida farmoyish chiqaradi. Aslida ushbu hujjat yuridik kuchga ega emasdi, biroq unga qirq yil amal qilinadi. Unda “...litva alifbosini o‘tkazmaslik, matnlar rus harflari bilan qayta yozilsagina bosishga ruxsat berish...” buyurilgan edi.

Mahalliy ziyolilar litva tilini o‘z uylarida yashirincha o‘qitardi, Sharqiy Prussiyada esa kitoblar 1864-yilgacha bo‘lgan sanalar qo‘yilgan qalbaki ruxsatnomalar bilan litva tilida xufyona chop etilardi. Litva tilidagi alifbo kitoblari, darsliklar, gazeta va adabiyotlar “knygnesys” qoplarida yelkalab chegaradan olib o‘tilar, shu tariqa poyi piyoda, botqoq kechib, ne mashaqqatlar bilan xalqqa yetkazilardi.

Ammo bu jarayon hamisha silliq ketmas, ba’zilar qo‘lga tushib qolardi. Kimning uyida litva tilida, lotin alifbosidagi kitob topilsa, u odam hibsga olinar va ashaddiy jinoyatchi sifatida Sibirga surgun qilinardi. O‘sha mudhish, fojiali davrda Kitob – Litva xalqining milliy mustaqillik, til va madaniyatni saqlab qolish uchun kurash timsoliga – ozodlik tug‘iga aylandi.


Палангские воспоминания * Записки беженки 9


Asrlar davomida o‘z erki uchun kurashib kelgan mag‘rur litva xalqi bosqinchilarga bo‘yin egmadi.

Qahramonimiz, palangalik doktor Lyudas Vayneykis Qozon universitetining tibbiyot fakultetini a’lo baholarga tamomlagan. Palangaga qaytgach, yosh shifokor madaniyat arboblarini faol qo‘llab-quvvatlar, xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘plar edi. U Palangada yashirincha litva teatrini tashkil etadi, “knygnesys” tarmog‘ini yaratib, 1900-yilgacha, ya’ni to uni hibsga olgunlariga qadar tarmoqqa rahbarlik qiladi.

Yosh shifokor bemorlarni davolab, ko‘pchilikning hurmatini qozonadi. Biroq bu uning rasmiy faoliyatining bahosi edi, xolos. Uning el-yurt ravnaqi, ma’rifat yo‘lidagi yashirincha, tahlika va tahdidlar ostida olib borgan ishlari yanada ko‘proq hurmat va ehtiromga loyiqdir.

Butun Litva bo‘ylab yuzlab yoshlar unga o‘z xohishlari bilan yordam berardi. Lyudas tutqich bermaydigandek tuyulardi, biroq dushman ham anoyi emasdi – chor Rossiyasi ayg‘oqchilari ilm-u ma’rifat ahlini, ziyolilarni, kitob tarqatuvchilarni mudom ta’qib qilardi.

Mudhish kunlarning birida rotmistr Vonsyaskiy degan ayyor bir jandarm doktorning uyi yonidagi omborxonadan litva tilida bosilgan butun bir kutubxonani topib oladi. Lyudasni Stanislava bilan to‘yidan keyinoq darhol hibsga olishadi, u ikki yil Liyepayedagi qamoqxonada o‘tiradi,



Stase (Stanislava) Вайнейкене. “Palangalik qochqin ayol xotiralari” – “Palangskiye vospominaniya zapiski bejenki”. O‘zbek va rus tillarida. Toshkent, “Baktria press” nashriyoti, 2021 yil.

O‘zbek tiliga Madina Aripova, rus tiliga Inga Pavlova va Richardas Garuolis tarjimasi.

1902-yilda esa uni Yakutskka surgun qilishadi. Stanislava erining ortidan Sibirga borish uchun qiyinchilik bilan ruxsatnoma oladi.

Maxsus farmon bilan litva tilidagi kitoblarga qo‘yilgan taqiq olib tashlangach, 1905-yildagina Vayneykislar oilasi Litvaga qaytadi. 1914-yili esa ularning O‘rta Osiyo bo‘ylab sarson-sargardonliklari boshlanadi.

Jazirama quyosh tig‘ida bepoyon Qoraqum sahrosi orqali ular Turkistonga yetib kelishadi. Bu yerda doktor Lyudas kasalxonalarda ishlab kun ko‘radi. Yetti yil musofirlik mashaqqatini boshdan kechirib, nihoyat, 1921-yil ko‘klamida oila Litvaga qaytishga muvaffaq bo‘ladi.

Sadoqatli Stanislava eri bilan yonma-yon turib, u bilan barcha yaxshi-yomon kunlarni boshidan kechirdi. Surgundagi hayotini kundalikka muhrlab bordi. Bu xotiralar keyinchalik litva tilidagi “Palanga xotiralari” va “Qochqin ayol qaydlari” kabi qismlardan iborat kitobga aylandi.

Litva hukumati va Palanga shahar kutubxonasi tomonidan ushbu kitob faqat 2014-yilga kelib, Litvada Lyudas Vayneykis tavalludining 130 yilligi munosabati bilan nashr etildi.

Menga Lyudas va Stanislavaning Turkiston o‘lkasida o‘tkazgan yillarini va o‘sha davrlar manzarasini tiklashning imkoni yo‘qdek tuyulardi, axir kitob litva tilida yozilgan va uzoq Palanga kutubxonasida saqlanardi. Ammo litvalik yaxshi bir do‘stim Richardas Garuolis Vayneykislarning ona shahriga borib, har hafta kutubxonaga qatnadi va matnlarni jonbozlik bilan tarjima qilib, menga yuborib turdi.

Palangadagi Vayneykislar muzeyining direktori esa rus va litva tillarini yaxshi biladigan ajoyib tarjimon Inga Pavlovani topdi...

Kitobda o‘sha davrda yuz bergan fojiali voqealar, jumladan, Turkiston xalqining boshiga tushgan dahshatli kunlar, o‘lat va ocharchilik, mustamlaka zulmi o‘z aksini topgan. Asarda, shuningdek, darbadarlikda Vayneykislar oilasiga hamroh bo‘lgan o‘zbek, turkman, qozoq, qirg‘iz, tojik va rus millatiga mansub kishilar hayoti haqida ham hikoya qilinadi.

Muallif o‘z xotiralarida voqea-hodisalarni haqqoniy tasvirlaydi, ularga o‘zining shafqatsiz bahosini beradi. Uning yodnomalari tufayli biz o‘lka iqtisodiyoti, siyosiy hayotining o‘ziga xos tomonlari, Rossiya imperiyasi va turli xalq vakillarining, jumladan, taqdir taqozosi bilan Turkistonga kelib qolgan Boltiqbo‘yi xalqlari vakillari, nemislar, chexlar, avstriyaliklar, yahudiylar, polyaklarning o‘zaro munosabatlari to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lamiz.

Vayneykislar oilasi O‘rta Osiyoning ko‘p joylarida bo‘lgan. Ular bir yilcha Amudaryoning chap sohilida, Otamurod degan joyda yashaydi. Bugun bu hudud Turkmanistonga qarashli, o‘sha paytda esa uning asosiy aholisi o‘zbeklar bo‘lgan.

1915-yil oxirida oila Kogonga ko‘chib keladi, Buxoro amiri Said Olimxonning taklifiga binoan doktor bir necha yil Magistral temiryo‘l kasalxonasida ishlab, minglab bemorlarning hayotini saqlab qolishga katta hissa qo‘shadi, odamlar o‘rtasida hurmat-e’tibor qozonadi.

Stase o‘shanda erining g‘oyat murakkab tibbiy sanitariya-gigiyena sharoitlarida ishlashiga to‘g‘ri kelganini aytar ekan, uning fidoyiligi, matonati, mehnatsevarligini faxr bilan ta’kidlaydi.

Ma’lumki, o‘sha yillari bolsheviklar va yosh buxoroliklar Fyodor Kolesov boshchiligida Buxoro amirini ag‘darishga urinadi, ammo Said Olimxon qo‘shini va minglab buxoroliklar tomonidan jiddiy qarshilikka uchraydi. Amir askarlari va mahalliy aholi bilan har qanday uchrashuv yevropaliklar uchun xatarli bo‘lib qoladi. Kolesov o‘z qo‘shinini va Kogonda yashaydigan barcha yevropaliklarni xavfsiz joyga ko‘chirishga urinadi. Ularga kasalxona xodimlari va shu yerda yotgan yaradorlar ham qo‘shiladi. Vayneykislar yetti ming kishi bilan birga eshelonlarga o‘tirib, amir qo‘shinlari tomonidan qisman buzib tashlangan temiryo‘l orqali Toshkentga qarab chekinadi. Oziq-ovqat, ayniqsa, suv yetishmasdi, suv solingan katta idishlarni askarlar qo‘riqlab turar, ayollar esa ulardan bolalari uchun loaqal bir qultum suv so‘rab yolvorishardi. Yonilg‘i tugay deb qolgandi. Shunda Kolesov rasmiy manbalarda ko‘rsatilgan ma’lumotlarning aksini qiladi, ya’ni qizil askarlar bilan poyezdni tashlab qochishga urinadi, ammo olomon uni hamma bilan birga ketishga majbur etadi. Poyezddagi kishilar mo‘jiza tufayli nisbatan xavfsiz hududga yetib oladilar.

Buxoro hukmdori bilan tinchlik shartnomasi imzolangach, Vayneykislar amir tomonidan ularning xavfsizligi va daxlsizligini ta’minlashga kafolat berish haqida va’da olgandan so‘ng Kogonga qaytishadi. Bu yerda ular yana yarim yil yashaydi.

Qizig‘i shundaki, sodir bo‘lgan urush va to‘s-to‘polonlardan ularning uyi omon qolgan edi. Vayron bo‘lgan shahar sharoitida bu aql bovar qilmas holat edi. Ammo shifokorning uyi – beshikast, daxlsiz turardi, zero, Buxoro ahli yaxshilikning, yaxshilarning qadriga yetardi!

Vayneykislar oilasi 1918-yili Toshkentga ko‘chib o‘tadi.

Stanislavaning nigohi bilan tasvirlangan Toshkentni shveysariyalik rassom Arnold Byoklinning suratlariga o‘xshataman. O‘sha-o‘sha quyosh, o‘sha yorqin ranglar, bu yerda har qadamda uchratish mumkin bo‘lgan teran ma’noli buyumlar, ashyo-anjomlar...

Vayneykislar Turkistonda o‘tkazgan olag‘ovur davr manzaralarini Stanislavaning rostgo‘y qalami vositasi ila tasavvur etish mumkin. Adibaning ta’rifiga ko‘ra, inqilob olovi ichra qolgan bu tinchliksevar, “kichkina, uncha boy bo‘lmagan mamlakat” xalqi qizil terror va bolsheviklar mafkurasining qurboniga aylanadi, bu esa dahshatli ocharchilik, vayronagarchilik va qonunsizlikka olib keladi.

“Vatandan yiroqda yashash mumkin emas!” Bu “Qochqin ayol xotiralari”ning asosiy g‘oyasidir. Ha, aynan Stanislava erini ona yurtga qaytishga ko‘ndiradi.

Lyudas butun umri davomida turli e’tiqod va millatga mansub kishilarni davolaydi, oddiy odamlar bilan do‘st-birodar tutinadi.

Kitobning har bir satri Stanislavaning umr yo‘ldoshiga, farzandlariga, sadoqatli enagasiga, yaqin do‘stlari va tanishlariga, o‘zlariga boshpana bergan zaminga muhabbati bilan yo‘g‘rilgan.

Bu muhabbat – nozik bir ayolga surgunning shafqatsiz damlarida jon saqlab qolishga, o‘z baxtini asrab-avaylab, vaqti kelib, jonajon yurtiga qaytishga yordam bergan o‘ziga xos ilohiy kuch bo‘lsa, ne ajab.

O‘zi tug‘ilib-o‘sgan ona shahridagi ko‘chalardan biriga Lyudas Vayneykis nomi berilgan. Minnatdor avlodlar esa unga haykaltarosh Ionas Yankus tomonidan yaratilgan haykalni o‘rnatishgan.

Palangada uni nafaqat buyuk jamoat arbobi va litva tilidagi kitoblarni tarqatish tashkilotchilaridan biri sifatida, balki 1899-yili Palangada sahnalashtirilgan ilk litva spektaklining tashabbuskori sifatida ham yaxshi bilishadi.

Hurmatli kitobxon!

Litva tilida yaratilgan va sizning e’tiboringizga o‘zbek va rus tillarida taqdim etilgan “Palangalik qochqin ayol xotiralari” (“Palangskiye vospominaniya zapiski bejenki”) kitobini bundan yuz yil avvalgi Turkistonimiz hayotining bebaho solnomasi, deyish mumkin.

Kitobni o‘qib, bir asr muqaddam Vatanimizda yuz bergan voqea-hodisalar, oddiy insonlar hayotiga litvalik ma’rifatparvar adiba Stase (Stanislava) Vayneykene nigohi bilan qarasangiz-da, xulosani o‘z dunyoqarashingiz va tafakkur olamingiz bilan chiqarmog‘ingizga ishonamiz.

TAHRIRIYATDAN

Albatta, ilmiy, ijodiy kashfiyotlar, o‘ta muhim yangiliklar har kuni ham sodir bo‘lavermaydi. Bu fikr, ayniqsa, tarixiy manbalarga taalluqlidir.

“Palangalik qochqin ayol xotiralari” – “Palangskiye vospominaniya zapiski bejenki” kitobi haqida ham shunday deyish mumkin.

Vatanimiz, xalqimizning o‘tgan asr boshlaridagi hayotidan hikoya qiluvchi mazkur kitob yozilganidan so‘ng turli sabablarga ko‘ra, yuz yildan oshiq vaqt mobaynida biz uchun noma’lum bo‘lib keldi. Va faqatgina 2021-yilga kelib, jonkuyar, vatanparvar bir insonning tashabbusi, sa’y-harakati va homiyligi bilan o‘zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi.

Tursunali Qo‘ziyev – barchamiz hurmat qiladigan, qadrlaydigan ajoyib ijodkor. O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi, Madaniy meros agentligi direktorining birinchi o‘rinbosari. Lekin u kishi avvalambor, tariximiz va madaniyatimiz fidoyisi, ma’rifatparvar shaxs.

Maqolada o‘qiganingizdek, litvalik marhuma bir adibaning kitobini Tursunali aka tasodif tufayli topgandek tuyuladi. Lekin bu tasodif zamirida katta tarixiy va hayotiy ma’no mujassam ekani kitob mutolaasidan so‘ng yaqqol anglashiladi.

Biz ushbu nodir nashrning dunyoga kelishiga o‘z hissasini qo‘shgan barcha insonlarga, xususan, litvalik Kestutis Rudis va Rusne Vayneykene, estoniyalik Yuris Gulbis va germaniyalik Amaliya Pfannensteylga tahririyat nomidan, madaniy jamoatchiligimiz nomidan minnatdorlik bildirishga burchlimiz.

XOTIRA AZIZ

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda.)

O‘zSSR Ichki Ishlar Xalq komissarligi Andijon sektorining 10791-sonli ishi bo‘yicha 1937-yil 13-noyabrdagi Uchlik yig‘ilishida jadidlardan uch kishini 10 yil muddatga mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilgan.

To‘raqulov Orziqul – 1888-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod”ning sobiq a’zosi, 1933-yili NKVD organlari tomonidan xorijga qochib ketishni tashkil etgani uchun qatag‘on qilingan, hibsda 9 oy yotgan. Qamoqqa olinganda maktab o‘qituvchisi bo‘lgan.

Sovet hokimiyatiga qarshi dushmanlikda, panislomizm g‘oyasini tarqatganlikda, Sovet hokimiyatiga qarshi bo‘hton qilganlikda ayblanib, O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi, 67-moddasi bilan 10 yil qamoq jazosiga hukm etilgan.

QATAG‘ON QURBONLARI

Rahimov Alijon – 1909-yili Andijon shahrida tegirmonchi oilasida tug‘ilgan. Hibsga olingan vaqtda maktab inspektori bo‘lgan. Aksilinqilobiy “Milliy ittihod” tashkiloti rahbariyati yig‘inlarida ishtirok etgan, Sovet hukumatining tadbirlariga qarshi dushmanlik munosabatda bo‘lgan. Maktablarda man etilgan aksilinqilobiy darsliklarni tarqatganlikda, F.Xo‘jayev foydasiga aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda ayblanib, O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi, 67-moddasi bilan 10 yil qamoq jazosiga hukm etilgan.

Yodgorov Usmon – 1903-yili Qo‘qon shahrida tug‘ilgan, ijtimoiy kelib chiqishini yashirgani uchun partiyadan o‘chirilgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkiloti rahbariyati bilan aloqada bo‘lgan. Hibsga olingan vaqtda “Stalin yo‘li” gazetasi tahririyatida kotib vazifasida ishlagan.

Sovet hokimiyatiga qarshi dushmanlik munosabatida bo‘lgani, aksilinqilobiy guruh yig‘inlarida ishtirok etgani, mag‘lubiyatchilik mazmunidagi she’rlarni tarqatgani, Troskiy, Buxarin, Tuxachevskiy va boshqa xalq dushmanlarini maqtagani uchun O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi, 67-moddasi bilan 10 yil qamoq jazosiga hukm etilgan.

O‘zSSR NKVD Samarqand sektorining 1256-sonli ayblov ishi bo‘yicha:

Zokiriy Majid – 1897-yili Samarqand shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilotining faol a’zosi. “O‘nsakkizlar” guruhi ishtirokchisi sifatida 1934-yili VKP(b) safidan chiqarilgan.

“Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkiloti Samarqand filiali rahbarlaridan biri Zokiriy kolxozchilar orasida doimiy ravishda aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, kolxozlarda ocharchilik to‘g‘risida ig‘vo tarqatganlikda, troskiychilarning otilishiga hamdardlik bildirganlikda ayblanib, shaxsiy mulklari musodara etilib o‘zi otuvga hukm qilingan.

Bobojonov Isrofil – 1884-yili Tojikiston SSR Panjikent shahrida tug‘ilgan. O‘zSSR Ichki Ishlar Xalq komissarligi Samarqand sektorining 5764-sonli ishi bo‘yicha aybdor deb topilgan. 1933-yili quloq qilingan. “Ittihodi Sharq” aksilinqilobiy tashkilotning sobiq a’zosi. Qamoqqa olinganida aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. Tizimli ravishda aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, murosachilik yo‘lini tutganlikda ayblanib, 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan.

Rahmonqulov Hazratqul – 1889-yili Jomboy rayoni Jomboy qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘zSSR Ichki Ishlar Xalq komissarligi Samarqand sektorining 1417-ishi bo‘yicha ayblangan. Hibsga olingan paytda kolxoz a’zosi bo‘lgan. Aksilinqilobiy tashkilot topshirig‘i bilan ko‘ngilli otryadga qo‘shilgan. Kolxozchilar orasida doimiy ravishda aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, milliy adovatni kuchaytirganlikda ayblanib, 8 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan.

Muhammedov Muxtorxon – 1899-yili Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. O‘zSSR Ichki Ishlar Xalq komissarligi Qo‘qon shahar bo‘limining 1749-sonli ishi bo‘yicha ayblangan. “Milliy ittihod”ning a’zosi. 1930-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun 3 yil qamoqqa hukm etilgan, hibsga olingan paytda o‘qituvchi bo‘lgan.

Millatchilik targ‘iboti olib borganlikda, xalq dushmanlarini maqtaganlikda ayblanib, O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi bilan 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 1-sentyabrdan hisoblangan.

Abdulla Rahmatzoda – 1901-yili Qo‘qon shahrida tug‘ilgan, kasbi o‘qituvchi, jurnalist. O‘zSSR Ichki Ishlar Xalq komissarligi Qo‘qon shahar bo‘limining 241/1747-sonli ishi bo‘yicha ayblanib, otuvga hukm etilgan. 1930-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun 5 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. VKP(b) safidan chiqarilgan. Aksilinqilobiy tashkilot – “Milliy ittihod”ning a’zosi, hibsga olingan paytda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan.

Unga “Talabalar jamiyati” nomli aksilinqilobiy, millatchi jamiyat tashkilotchisi va rahbari sifatida hamda panislomchilar rahbari Mullo Yaring Begiyevni maqtaganlik aybi qo‘yilgan.

Muhammadiyev G‘afurjon – 1886-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. O‘zSSR Ichki Ishlar Xalq komissarligi Qo‘qon shahar bo‘limining 1633-sonli ishi bo‘yicha ayblangan. Qo‘qon shahar volost boshqaruvchisi, “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilot a’zosi. Qamoqqa olingan paytda Rayonlararo himoyachilar kollegiyasi a’zosi bo‘lgan. U muxtor hukumat davrida Sovet hokimiyatiga qarshi kurashda ishtirok etganlikda, aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda ayblanib, mehnat-tuzatuv lageriga 8 yil muddat bilan qamoq jazosiga hukm etilgan.

Akramxonov G‘ulomxon – 1887-yili Namangan shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilotining Namangan bo‘limi a’zosi, 1918-yili bosmachilik faoliyati uchun 3 yil qamoq jazosiga hukm etilgan va VKP(b)dan o‘chirilgan.

Aholi orasida doimiy ravishda mish-mishlar tarqatish orqali partiya va hukumat rahbarlarini obro‘sizlantirish bilan mashg‘ul bo‘lgan. Unga ruslar zulmidan ozod bo‘lish maqsadida Sharq xalqlarini yagona milliy tashkilotga birlashtirishga chaqirgan, Sovet hokimiyatiga qarshi qurolli kurash olib borishga da’vat etgan degan ayblar qo‘yilib, mulki musodara qilinib, o‘zi otuvga hukm etilgan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori, professor,
Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonda).

MUNOSABAT

CHIQQAN QIZ CHIYDAN NARIMI?

Joriy yil 20-fevral kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida ijtimoiy himoya sohasidagi xizmatlar qamrovini yanada kengaytirish bo‘yicha ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilish davomida, bir talay muammolar va ularning yechimlari haqida so‘z yuritildi.



Jumladan, voyaga yetmagan qizlarni unashtirish va yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh bilan bog‘liq kelajak avlod salomatligiga salbiy ta’sir qilayotgan holatlarning oldini olish, odamlarga buning oqibatlarini tushuntirish borasidagi ishlar lozim darajada olib borilmayotgani qayd etildi. Darhaqiqat, keyingi yillarda mamlakatimizda oila va xotin-qizlar huquqlarining kafolatlari, ayollarni zo‘ravonlik va tazyiqdan himoya qilish tizimi ancha kuchaytirildi. Lekin noxush holatlar hali ham uchrab turibdi.

Yig‘ilishda zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlar reabilitatsiya bilan yetarlicha qamrab olinmagani qayd etildi. Ayollar va bolalarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoyalash bo‘yicha mahalla miqyosida alohida tizim yaratilishi belgilandi. Tazyiqqa uchragan ayollar reyestri tuzilib, ularga mahallada tezkor xizmat ko‘rsatish tizimi joriy qilinadi.

Endi har bir tuman shifoxonasida zo‘ravonlikka uchraganlarga tibbiy va ruhiy yordam ko‘rsatish uchun tun-u kun ishlaydigan xonalar tashkil etiladi. Qiyin vaziyatga tushib qolgan yosh onalarni qo‘llab-quvvatlash uchun “Onalar maskani” xizmatini yo‘lga qo‘yish ta’kidlandi.

Davlatimiz rahbarining bu borada kuyunib gapirgani bejiz emas. Eng asosiy masalalardan biri xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi rolini yanada oshirishdir. Rivojlangan mamlakatlarda xotin-qizlar huquqlari kafolatlangan bo‘ladi. Bizdayam bu boradagi ishlar izchil olib borilmoqda. Lekin, afsuski, guruch kurmaksiz bo‘lmaganidek, oramizda befarq yoki tor fikrlarga o‘ralashib qolgan kishilar bor.

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda bir yosh qizchaning bo‘yniga taqinchoq taqishayotgani ko‘rsatildi va bu ko‘p shov-shuvlarga sabab bo‘ldi. Emishki, taqinchoq taqqan ayol taxminan 7-8-sinf o‘quvchisi bo‘lgan qizchaning bo‘lajak qaynonasi emish. O‘g‘liga qizchani unashtirib “belgili” qilib ketganmish.

Bunday holatlarning uchrab turishini hammamiz bilamiz-ku! Maktab o‘quvchilari unashtirilayotganini eshitamiz-ku! Yoki qizlarni maktabni bitirishi bilan turmushga uzatish urfga kirib borayotgani hech kimga sirmas. Bu juda achinarli hol. Qizlar ota-ona ra’yiga qarshi borolmay bu holatga ko‘nishyapti.

Negadir, aksar ota-onalar qizlarining ta’lim-tarbiya olishiga unchalik e’tibor berishmaydi. “Chiqqan qiz chiydan nari” kabi almisoqdan qolgan aqidalar tufayli qancha qizlarning orzulari ro‘yobga chiqmay, oila yukini bo‘yniga olishganini eshitganmiz. Aslida, qizlarga zamonaviy ta’lim bermoq lozim. Chunki millat bolalarining tarbiyachisi aynan onalardir. Qizlar millatni tarbiyalovchi bo‘lajak onalardir.

Qiz bola uchun muhimi oila, degan vaj bilan o‘zimizni ovutamiz. Bunga shubha yo‘q. Musulmon erkak uchun ham, ayol uchun ham oila muqaddas. Nikoh benihoya ijobiy o‘zgarishlarga sababchi va turli fitnalardan saqlovchidir. Lekin er ham, ayol ham oila muqaddasligini anglamog‘i, oila qurmoqqa jismonan va ruhan tayyor bo‘lmog‘i zarur. Bugun turmush qurayotgan ayrim yoshlarning hayot haqida, oila haqida tushunchasi, tasavvuri sayoz. Yigitlar uylanishi lozim bo‘lgani uchungina, qizlar esa ota-ona ra’yiga qarab to‘y bo‘layotgandek. Bo‘lajak ota-ona muayyan bilim va tushunchalarga ega bo‘lmog‘i kerak, albatta.

Ba’zan ayoliga zug‘um qilayotgan erlar haqidayam eshitib qolamiz. Alamzada er xotinini savalab alamidan chiqqandek bo‘ladi. Nega alamzada deyapman. Chunki o‘zidan qoniqqan, jamiyatda o‘z o‘rni bor erkak hech qachon mazlumaga qo‘l ko‘tarmaydi. Bir ojizaga kuch ishlatgan bilagi zo‘rni nima deb ta’riflashgayam til ojiz. Va bunday ayollar ham hayot shu ekan deb, ko‘nib yashayverishadi. Aslida, hammasi haq-huquqni bilmagandan kelib chiqadi. Bilimli va o‘qimishli ayolga uncha-muncha kishi qo‘l ko‘tarishga haddi sig‘maydi.

Bugun oramizda ijtimoiy himoyaga muhtoj yosh onalarimiz bor. Ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlab, alamzadalikdan forig‘ qilib, jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga yordam berish yaxshi natijalarga olib keladi.

Zikrilla MAMATOV

HUJJATLI QISSA

JIZZAX QO‘ZG‘OLONI

Mirzo Qo‘qonboy ABDUXOLIQOV

(Oxiri. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

...Bu galgi sud hay’atida bir rais va to‘rt a’zo bo‘lib, to‘rttala a’zo ham Samarqandning oddiy ofitserlaridan edi. Rais, prokuror va kotib shu sud uchun Toshkentdan maxsus chaqirilgandi. Bu to‘rttala a’zo ham bir pulga qimmat odamlar bo‘lib, ularning suddagi ishtiroki nomigagina edi.

Bu ikki qotil, ya’ni rais va prokuror eshshaktabiat odamlar bo‘lib, yuzlaridan qahr tomib turardi. Rais uzun bo‘yli, rangpar, viqor bilan boqadigan kamgap, gapini bo‘lib-bo‘lib so‘zlaydigan kishi edi. Ko‘zlari chunonam behol va benazir bo‘lib, go‘yo qorachiqlari hozir tamoman yo‘qolib ketadigandek tuyulardi. Baqrayib qarab turar, deyarli kiprik qoqmasdi.

Bu o‘rinda rais va prokurorning tashqi va ichki qiyofasiga to‘xtalib o‘tishni lozim topdik, chunki ish ana shu ikki qotilning qo‘lida edi. 4 a’zo esa haybarakallachi maddohlar bo‘lib, aniqroq aytganda, uyning darpardasi yoki ovqat ustuliga yopiladigan po‘pakli mato (skatert) kabi xonaga zeb beradigan bir buyumdek edilar, ya’ni sud hay’atida qo‘r to‘kib o‘tirishdan boshqa narsaga arzimaydigan kishilar edi. Faqat shu suddagina ular ahamiyatsizdek bo‘lib ko‘rinardilar, aslida ularning oq qo‘llari mahalliylarning qizil qoniga bo‘yalgandi... Rais va prokurorning ko‘rinishlari tubandagidek edi: harakatlari ohista, yuzlari tosh qotgan, aftiga qarab biror-bir ma’ni uqib bo‘lmas, umuman, hissiyotdan butunlay begonadek edilar.

So‘roq paytida ham kam gapirishar, gunohkorlardan go‘yo unga mutlaqo aloqasi yo‘q gaplarni so‘rashardi. Gunohkorlardan bir-ikki og‘iz gap so‘ragach, boshini avval o‘ng tomonga, keyin chap tomonga burib, so‘roq navbatini hay’at a’zolariga havola etardi, lekin ularda ham gapirish istagi yo‘q edi: qo‘llaridagi qalam bilan stolda turgan ro‘yxatga qanaqadir belgi chizib o‘tarardilar. Prokuror va himoyachining gaplaridan so‘ng qo‘llaridagi o‘sha qalam bilan gunohkorga o‘tir ishorasini qilishar, so‘roq navbati boshqa gunohkorga kelardi.

Bandilarning ichida 30 yoshgacha bo‘lganlar kam edi, ko‘pchilik 40-45 yoshlarda bo‘lib, qariyb 100 kishi atrofida edilar.

Ishning g‘alatiligi shunda ediki, 300 ga yaqin “qo‘zg‘olonchi”ni 3 qismga ajratib, sud qilardilar va har bir qism muayyan bir vulusning aholisi edi.

Birinchisi Bag‘dod (hozirgi Forish) vulusi, ikkinchisi Sangzor vulusi, uchinchisi qaysi vulusligi xotiramdan ko‘tarilgan. Albatta, bu teng taqsimlanishlar tasodifiy bo‘lmay, har bir vulusdan 100 kishidan olib, tantanali sud qilish oldindan kelishib olingan edi. O‘sha “100” kishidan 5-6 kishi turmaning o‘zida o‘lgan yoki bemajolligidan sudga ham kelolmaganlar edi.

Mahkumlarni osishga hukm qilayotgan va imzo chekayotganlarida sud hay’ati tarkibidagilarning bir tola mo‘yi ham qilt etmasdi...

Sud jarayonini tasvirlab o‘tirishning hojati yo‘q. Zotan, sud qarori oldindan tayyorlab qo‘yilardi. Biroq sudda kechgan ikki voqeani aytib o‘tsak, sudning haqiqiy mohiyati yaqqol ko‘zga tashlanib qoladi. Birinchi voqea bunday bo‘lgandi:

Bandilarni so‘roq qilish vaqti boshlandi. Sud raisi qo‘lidagi ro‘yxatga qarab, bandini yoniga chaqirar va tarjimon orqali aybiga iqrormi, iqror emasligini so‘rardi.

Bandi, albatta, iqror emas...

Gunohkor prokurorning savoliga tushunmay, ba’zan qayta so‘rashga jur’at qilolmas yoki javob bersa ham prokurorning nayrang va firib bilan to‘qigan to‘riga ilinib qolardiki, u o‘zining berayotgan javobi o‘ziga zarar keltirishini fahmlamasdi...

Darvoqe, ota-yu bobolari qishloqda yashab o‘tgan kishining o‘zi umrida shaharni ko‘rmagan bo‘lsa, ajab emas. Uning aytib-eshitadigan gaplari ham dehqonchilik bilan bog‘liq gap-so‘zlar: ho‘kiz-u omoch, o‘rog‘-u ketmon, eshag-u to‘qim va hokazo. Boz ustiga maktab deb ataladigan binoni ham umrida ko‘rmagan. Endi u qayerdan bilsinki, bir “gap” uchun nainki bir uy yo o‘n uy, balki minglab uylar kuyib ketsa, xonumonlar buzilsa, nafaqat bir shahar, balki butun boshli bir mamlakatlar xarob bo‘lsa...

Rais va prokuror bir idorada ishlardilar. Uning raisga shogirdligi ham bor edi. Yaqinda uni yuqoridan prokurorlikka tavsiya qilishgandi. Garchi poruchik darajasi prokurorlikka noloyiq bo‘lsa-da, o‘shanda ofitserlar kamchilligi uchun kichik darajadagilar ham katga amallarga qo‘yilardi.

Tarjimon esa bu “bo‘rilar va qo‘ylar” majlisiga majburan chaqirilgan bo‘lib, agar ixtiyor o‘zida bo‘lsa hoziroq orqa-oldiga qaramay qochishga tayyor edi. U prokuror bilan bo‘lgan mashmashadan so‘ng rais menga javob bersa kerak, deb bir qadar xursand bo‘lib turardi. Biroq u kutgandek bo‘lmadi, ya’ni tegirmon toshidan ham og‘irroq tarjimonlik yuki yana uning bo‘yniga ortildi...

Rais bilan prokuror bir-biriga ism-u shariflarini tilga olib murojaat qilishardi, vaholanki, rasmiyat yuzasidan bunday qilish mumkin emas.

Rais prokuror ism-u sharifini aytib murojaat qilganda, prokuror uning bu murojaatidan iliqlik tuyib, o‘zini ancha erkin his qila boshladi...

Rais har qancha tirishsa ham, guvoh “tanimayman”ini davom etaverdi. Prokuror unga savollar berish befoydaligini tushunib, uning bahridan kechdi. Ammo avval boshda “garang” bo‘lib, keyin “hushyor” bo‘lganligining sabablari bor.

Lekin bu chora ham “gunohkorlar”ga foyda bermadi, Toshkentning oldindan chiqarib qo‘ygan qarori o‘z ishini qildi.

Umuman olganda, sud asosining mantiqi gunohkorga qarshi to‘qqiz dalil bo‘lsa-yu, begunohligiga bir dalil bo‘lsa, keyingisi bilan gunohkor oqlanishi mumkin. Biroq bu sudda barchasi aksincha edi. Chunki bu o‘rinda gunohkorlarga nisbatan nainki 9 ta dalil, hatto bitta ham dalil yo‘q edi.

Qo‘zg‘olonni bostirishda mahalliylardan 15-20 ming kishi o‘ldirildi, degan ovozalar tarqadi.

Qancha odam o‘ldirilganini hech kim sanagan emas, albatta. Bunaqa hisob-kitoblardan hukumat ham manfaatdor emasdi, balki masalaning ustini yopishga harakat qilardi.

O‘ldirilganlarning miqdori haqida hech qanday hujjat yo‘q. Gazetaga yozishga esa, senzo‘r yo‘l qo‘ymasdi. Bu boradagi yagona dalil Jizzax uyezdidagi kishilarning og‘zaki gapi edi. Chindan ham o‘sha paytlar “qishloqda odam kam qoldi” deyishardi. Aniq hujjat bo‘lmasa-da, bu yerda aholidan eshitgan ma’lumotni berishni lozim topdik. Balki bu ovozalarda mubolag‘a ham bo‘lishi mumkin. Lekin Jizzax shahar-u qishloqlarida ham odam kamayib qolganligi hech kimga sir emas.

Bu fikrlarda jon bor edi, vaholanki, Turkistondagi bu noqonuniy ishlar davlat dumasidagi so‘l qanotdagilar uchun yaxshigina dastak bo‘lishi mumkin edi.

Jizzax shahri va uyezdi aholisining jazoga mustahiq etilgan oxirgi sudi shu bo‘ldi...

Oxirgi sudda advokatlar hukumatning adolatsizligi va zulmini ro‘y-rost ochib tashladilar. Bu gaplardan shu narsa ayonlashadiki, hukumat o‘tkazayotgan siyosatidan o‘zi ham xavfsirab turibdi. Lekin olib borayotgan siyosatini hukumatdorlar yaxshi bilardi. Takror aytamiz, asosiy maqsad – tub aholini batamom qirib, ularning o‘rniga muhojirlarni joylashtirmoq edi...

Takror bo‘lsa ham yana bir bor eslatish joiz, qirg‘in payti 20 ming atrofida odam o‘ldirilganligi ovoza bo‘lgandi. Bu yerda o‘ldirilganlarning soni kam yo ko‘p bo‘lishi ham ehtimoldan xoli emas.

Ular to‘p, miltiq, pulimyot va qilichdan o‘ldirilgan edilar. Lekin ochlikdan o‘lganlar, Buxoro va Afg‘onistonga tarqab ketganlar ulardan kam emasdi. Qirg‘indan so‘ng ochlikdan o‘lganlar o‘n minglardan oshardi.

Jizzax dehqonchilikka ixtisoslashgan uyezd edi. Har yili Jizzaxdan yuz ming pud g‘alla Farg‘onaga jo‘natilardi.

Jizzax uyezdida shunday g‘alla omborlari bor ediki, g‘allani har tomonga jo‘natgan bilan tugamasdi, chunki u yerda necha yillik g‘alla-don to‘plangandi. Bekorga Jizzaxni novvoyxona, deyishmasdi.

Agar Jizzax uyezdida uch yil qahatchilik bo‘lsa ham g‘allasi nafaqat o‘ziga, balki butun Turkistonga yetardi. Jizzaxda qahatchilik bo‘lganligini shu paytgacha hech kim eshitmagan.

To‘g‘ri, 1917–1918-yilda na qor yog‘di, na yomg‘ir. Samarqand uyezdlarida ham yog‘ingarchilik bo‘lmadi, lekin Samarqand viloyatida hech kim o‘lgan emas. Biroq Jizzax uyezdi aholisining ko‘pchiligi ochlikdan jon berdi. Tirik qolganlar boshi oqqan tomonga tarqab ketdi, qishloqlarda hatto it ham qolmadi.

Ocharchilikning sababi shunda ediki, qirg‘in g‘alla o‘rish paytiga to‘g‘ri kelgandi. Ba’zilar non uchun 4-5 pud yanchib olardi, lekin hosilni yig‘ib olishga kirishmagan edilar. Aynan o‘sha payt ramazon oyi bo‘lib, ko‘pchilik ro‘za tutardi va darmonsizlik sabab bo‘lsa kerak, hosilni 10-15 kun keyin yig‘ib olmoqchi edilar.

Ana shu paytda qirg‘in boshlandi. Jazo otryadlari g‘allazorlarga o‘t qo‘ydi, hatto omborxonalardagi g‘allalar ham kuyib ketdi. Bu – zaxira ham qolmadi degani.

Lekin Nikolayning jazo otryadlaridan omon qolgan g‘allazorlar ham bor edi, biroq ekinni o‘rib oladigan odam qolmagandi. Bu odamlar o‘shanda qayerda edi?

birinchidan, ishlashga qurbi yetadiganlar o‘ldirilgan edi;

ikkinchidan, bir qancha kishilar qochib, har tomonga to‘zib ketgandi;

uchinchidan, yana bir qanchalar turmada yotardi yo sud bo‘lganlari Sibirga surgun qilingandi;

to‘rtinchidan, front ortini mustahkamlash uchun mardikorlikka jo‘natilganlar ham ko‘pchilikni tashkil qilardi;

beshinchidan, ekinzorlar egasiz qoldi, u payt mulk xususiy bo‘lib, birovning mulki bilan birovning ishi yo‘q edi;

oltinchidan, o‘sha 1916-yilning oktyabr oxirlari noyabr boshlarida bir oz osudalik hukm surgan bo‘lsa-da, bolalar-u ayollar uchun hosilni yig‘ib oladigan biror-bir jihoz, vosita qolmagandi, ya’ni hukumat o‘roqlarni ham tortib olgandi. Shu tariqa 1915–1916-yilgi hosil nobud bo‘lib, dashtlardagi dehqonchilik kasodga uchradi.

Shahar va shahar atrofidagi aholi, asosan, savdogar, do‘kondor, kosib va sug‘orib dehqonchilik qiladigan kishilardan iborat edi, yuzaga kelgan osuda vaziyatdan foydalanib asta-sekinlik bilan ishlarini yo‘lga qo‘ya boshladilar. “Xudo urdi – dehqonni urdi” degan gap Jizzax uyezdi dehqonlariga qarab aytilgan edi.

Yuzaga kelgan tinchlik va osudalik sharoitida o‘z qishloqlariga qaytgan Jizzax uyezdi odamlari ocharchilikning shunday hamlasiga duch keldilarki, qishloqlarda hatto tirik jon qolmadi.

Zaxiralarning tugab, 1915-1916-yilgi hosilning nes-nobud bo‘lishi oqibatida keyingi yil urug‘ligi, urug‘lik topilgan taqdirda ham omochga qo‘shiladigan hayvonning yo‘qligi dehqonchilikni tamoman izdan chiqardi. Demak, 1916–1917-yillarda hosil ekilmadi hisobi. 1917–1918-yillarda esa, yog‘ingarchilik umuman bo‘lmadi. Natijada qimirlashga majoli yetgan Jizzax ahli har tomonga sochilib ketdi.

O‘sha qurg‘oqchilik bo‘lgan yili Samarqand viloyati uyezdlari bo‘lgan Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Xo‘jandda ocharchilik bunchalik katta talofat yetkazgan emas. Sababini esa o‘zingiz tushunib turibsiz.

Ba’zi yevropalik o‘rtoqlar qo‘zg‘olonni panislomizm va panturkizmga bog‘laydilar. Ammo bu “izm”larning qo‘zg‘olonga mutlaqo aloqasi yo‘q edi.

Qo‘zg‘olondan maqsad “kofirlarni” o‘ldirish, deb o‘ylaydiganlar ham topiladi.

Ammo bu sabablarning hech biri Jizzax qo‘zg‘oloniga daxldor emas. Bu fikrlarning asossizligini qo‘zg‘olonning o‘zi ko‘rsatib berdi. Chunonchi, qo‘zg‘olonchilardan hech biri qirg‘in payti to‘g‘ri kelgan rusni o‘ldiravermadi, balki kimdan jabr va zulm ko‘rgan bo‘lsa o‘shaning o‘ziga tajovuz qildilar. Zolimlarning hech bir oila a’zolariga ham teginmadilar.

Bu qo‘zg‘olonga din emas, zulm sabab bo‘lgandi. Omma zulmning zo‘ridan jazavaga kelgandi. Panislomizm yo g‘azovot degan gaplar qo‘zg‘olonga sun’iy ravishda tiqishtirildi. Zotan, xalq ommasi panislomizmning nimaligini bilmasdi ham.

Chunonchi, ilgarigi zamonlarda ham xalq ommasi Buxoro va Qo‘qon xonlari zulmiga qarshi shunday qo‘zg‘olonlar qilib turardiki, u paytlar panislomizm degan gapdan nom-u nishon ham yo‘q edi.

Agar o‘shanda podsho hukumati zulmni kuchaytirmaganda qirg‘in ham bo‘lmasdi, xullas, qo‘zg‘olonning asosi zulm va zo‘ravonlik edi.

1936-yil

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Navbatchi muharrir:
Muhayyo Pirnafasova

Sahifalovchi:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farqlanishi mumkin.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 5203
Lotin yozuvidagi adadi – 11905
Buyurtma: G – 340.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:35
Sotuvda narxi erkin.